

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
QARSHI MUHANDISLIK IQTISODIYOT INSTITUTI
IQTISODIYOT FAKUL'TETI
«IQTISODIYOT» KAFEDRASI

«HIMOYAGA TAVSIYA ETILADI»

«Iqtisodiyot» kafedrası mudiri
dots. A.Raxmatullaev

«____» _____ 2014 yil

« TASDIQLAYMAN»

«Iqtisodiyot» fakul'teti dekani
i.f.d., prof. A.F.Xurramov

«____» _____ 2014 yil

**Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida fermer xo'jaligida ishlab chiqarishni
intensivlashtirish va uning iqtisodiy samaradorligi oshirish yo'llari (Qarshi
tumani "Xaydarov Aziz Mirzamaxmudovich" fermer xo'jaligi misolida)
mavzusidagi**

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

BAJARDI: «Iqtisodiyot» (qishloq
xo'jaligi) ta'lim yo'nalishi bitiruvchi
IV kurs talabasi _____ Mirzamaxmudov Odiljon

ILMIY RAHBAR:
«Iqtisodiyot» kafedrası dotsenti
_____ S.N.Xamrayeva

Bitiruv malakaviy ishi kafedrada dastlabki himoyadan o'tdi

_____ sonli bayonnoma «____» _____ 2014 y.

QARSHI MUHANDISLIK-IQTISODIYOT INSTITUTI
BITIRUV MALAKAVIY ISHIGA TOPSHIRIQ

«TASDIQLAYMAN»

Iqtisodiyot kafedrasini mudiri

_____ dots.A.Raxmatullayev

« 25 » noyabr 2013 y.

1. Talaba: Mirzamaxmudov Odiljon Mirzamaxmudovich
 2. Ta'lim yo'nalishi: 5340100-Iqtisodiyot (qishloq xo'jaligi)
 3. Bitiruv malakaviy ishining mavzusi: Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida fermer xo'jaligida ishlab chiqarishni intensivlashtirish va uning iqtisodiy samaradorligi oshirish yo'llari
 4. Bitiruv malakaviy ishi oldi amaliyoti o'tilgan joy: Qarshi tumani "Xaydarov Aziz Mirzamaxmudovich" fermer xo'jaligi
 5. Bitiruv malakaviy ishining rahbari: Iqtisodiyot kafedrasini dotsenti, i.f.n. S.N.Xamrayeva
 6. Bitiruv malakaviy ishi maqsadi: Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida fermer xo'jaligida ishlab chiqarishni intensivlashtirish va uning iqtisodiy samaradorligi oshirishga qaratilgan ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqish va xulosalar berishdan iborat
7. Ish rejasini:

Bitiruv malakaviy ishi bo'limi	Bitiruv malakaviy ishi bo'limi nomi	Bajarish muddati
Kirish	Mavzuning dolzarbligi, maqsad va vazifalari, ilmiy va amaliy ahamiyati, o'rganilganlik darajasi va obekti	10.12.2013-26.12.2013 y
I – Bob	Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida fermer xo'jaliklarida ishlab chiqarishni intensivlashtirishning obektiv zarurligi va nazariy asoslari	10.01.2014-16.02.2014 y.
II – Bob	Fermer xo'jaliklarida qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishni intensivlashtirish iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichlari tahlili	18.02.2014-30.03.2014 y
III – Bob	Istiqbolda fermer xo'jaligida ishlab chiqarishni intensivlashtirish va uning iqtisodiy samaradorligi oshirish yo'llari	01.04.2014-13.05.2014 y.
Xulosa va takliflar	Ilmiy va amaliy natijalardan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish	14.05.2013-31.05.2014 y.
Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati	O'z.R Qonunlari, VMning qaror va Farmonlari, darslik, o'quv qo'llanma va ko'rsatmalardan foydalanish	3.06.2014-14.06.2014 y

8. Bitiruv malakaviy ishini bajarish uchun zarur bo'lgan materiallar:

a) adabiyot manbalari: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining, respublikamiz va xorijdagi yetakchi agrar-iqtisodchi olimlarning ilmiy ishlari va asarlari

b) qonuniy-meyoriy hujjatlar: O'zbekiston Respublikasining Qonunlari, Prezident Farmonlari, Vazirlar Mahkamasining Qarorlari va boshqa meyoriy hujjatlar.

v) statistik va boshqa ma'lumotlar: Qashqadaryo viloyati statistika boshqarmasi, Qarshi tumani "Xaydarov Aziz Mirzamaxmudovich" f/xo'jaligining 2011-2013 yillardagi ma'lumotlari

9. Tasvirlash materiallari: jadval, chizma va slaydlar

10. Topshiriq berilgan kun: 25.11.2013 yil

11. Ishni topshirish muddati: 16.06.2014 yil

12. Ilmiy rahbar: _____ i.f.n., dots.S.N.Xamrayeva

Kafedra mudirining bitiruv malakaviy ishini himoyaga qo'yish haqidagi xulosasi _____

Mundarija

Kirish

I Bob. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida fermer xo‘jaliklarida ishlab chiqarishni intensivlashtirishning obyektiv zarurligi va nazariy asoslari.

1.1. Fermer xo‘jaliklarida ishlab chiqarishni intensivlashtirishning mazmuni va iqtisodiy mohiyati

1.2. Fermer xo‘jaliklarida ishlab chiqarishni intensivlashtirish va iqtisodiy samaradorlikni oshirishda fan-texnika taraqqiyoti, uning yo‘nalishlari va intensiv texnologiyalarning o‘rni

II bob. Fermer xo‘jaliklarida qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishni intensivlashtirish iqtisodiy samaradorlik ko‘rsatkichlari tahlili

2.1. Qarshi tumani “Xaydarov Aziz Mirzamaxmudovich” fermer xo‘jaligining tashkiliy-iqtisodiy tasnifi va rivojlanish holati tahlili

2.2. Qarshi tumani “Xaydarov Aziz Mirzamaxmudovich” fermer xo‘jaligida ishlab chiqarishni intensivlashtirish darajasi dinamikasi

2.3. Fermer xo‘jaliklarida ishlab chiqarishning iqtisodiy samaradorlik ko‘rsatkichlari tahlili va unga ta’sir ko‘rsatuvchi omillar

III Bob. Istiqbolda fermer xo‘jaligida ishlab chiqarishni intensivlashtirish va uning iqtisodiy samaradorligi oshirish yo‘llari .

3.1. Fermer xo‘jaliklarida ishlab chiqarishni intensivlashtirishning asosiy yo‘nalishlari

3.2. Iqtisodiyotni diversifikatsiyalash sharoitida fermer xo‘jaliklarida mahsulot ishlab chiqarishning iqtisodiy samaradorligini oshirishning ustivor yo‘nalishlari

Xulosa va takliflar

Xulosa va takliflar

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. Respublikamiz iqtisodiyoti agrar tarmog'ini barqaror rivojlantirish, qishloq xo'jalik mahsulotlari yetishtirish hajmlarini ko'paytirib borish birinchi navbatda aholi jon boshiga qishloqda yetishtirilayotgan mahsulotlarining iste'mol qilinish darajasini tibbiy meyorlar talablariga yaqinlashtirish va qayta ishlash sanoati korxonalarini muntazam xomashyo bilan ta'min etishni ko'zda tutish lozim bo'ladi. O'zbekiston agrar sohasida amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarning hozirgi bosqichida fermer xo'jaliklarining barqaror rivojlanishini ta'minlashda intensivlashtirish orqali ularni raqobatbardoshligini oshirish, mahsulot yetishtirishda talab va taklif muvozanatiga erishish, ichki va tashqi bozorda samarali faoliyat yurituvchi mexanizmlarni keng ko'lamda joriy qilinishi dolzarb vazifalardan hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasini 2014 yilda ijtimoiy iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor vazifalaridan biri sifatida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov ta'kidlaganidek "O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov ta'kidlaganidek "Yurtimizda qishloq xo'jaligini rivojlantirishning kelajagi haqida gapirganda, yer va suv resurslari bo'yicha imkoniyatlarimiz cheklanganini hisobga olib, bu borada yagona to'g'ri yo'l – qishloq xo'jaligini intensiv asosda rivojlantirish, yerlarning meliorativ holatini tubdan yaxshilash, seleksiya ishlarini chuqurlashtirish, yuksak samarali zamonaviy agrotexnologiyalarni joriy etish va suvdan oqilona foydalanish, eng muhimi – dehqon va fermerlarning dardi bilan yashash,"¹

Agrar islohotlar natijasida qishloq xo'jaligida xo'jalik yuritishning bozor shakllariga o'tildi va mustaqil tovar ishlab chiqaruvchilarning salmog'i oshdi. Qishloq xo'jalik korxonalarini moliyaviy sog'lomlashtirish, davlat byudjeti subsidiyalari orqali kredit tizimidan foydalanish, hosilni sug'urtalash va boshqa bir qator ishlar amalga oshirilmoqda. Biroq, qishloq xo'jaligining barqaror va jadal rivoji hozircha ta'minlangani yo'q. Qishloq xo'jalik ishlab chiqarishida innovasiya, zamonaviy texnika va texnologiyalar hamda xo'jalik yuritishning yangicha shakllaridan foydalanish orqali ushbu muammoni hal etish mumkin.

Iqtisodiyotni erkinlashtirish va modernizatsiyalash sharoitida fermer xo'jaliklarning qishloq xo'jalik mahsulotlari ishlab chiqarishini va uning barqaror rivojlanishini taminlash maqsadida istiqbolda har bitta xo'jalik yurituvchi subyektning raqobatbardoshligini aniqlagan holda iqtisodiy samaradorligini oshirishning tashkiliy va iqtisodiy masalalarni hamda intensivlashtirishning asosiy

¹ Karimov A.I. 2014 yil yuqori o'sish sur'atlari bilan rivojlanish, barcha mavjud imkoniyatlarni safarbar etish, o'zini oqlagan islohotlar strategiyasini izchil davom ettirish yili bo'ladi // Xalq so'zi. – 2014 yil 18 yanvar.

yoʻnalishlaridan foydalanishning mavjud muammolari, kamchiliklari va nomutunosibliklarni majmuaviy shaklida chuqur tadqiq etishni taqozo etadi.

Ushbu bitiruv malakaviy ishi fermer xoʻjaliklarida ishlab chiqarishni intensivlashtirish va uning iqtisodiy samaradorligini oshirish yoʻllariga bagʻishlangan.

Bitiruv malakaviy ish maqsadi: Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida fermer xoʻjaligida ishlab chiqarishni intensivlashtirish va uning iqtisodiy samaradorligini oshirishga qaratilgan ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqish va xulosalar berishdan iborat.

Bitiruv malakaviy ishi vazifalari: Ushbu maqsadga erishish uchun bitiruv malakaviy ishda qoʻyidgi vazifalarni hal etish belgilab olindi va hal etildi:

- fermer xoʻjaliklarida intensivlashtirishning nazariy va ilmiy asoslari ochib berildi;
- fermer xoʻjaliklarini isloh qilishning asosiy yoʻnalishlari tahlil qilindi;
- fermer xoʻjaligida intensivlashtirishning iqtisodiy samaradorlik koʻrsatkichlari aniqlash tartibi belgilab chiqildi;
- fermer xoʻjaligining intensivlashtirish darajasiga tasir etuvchi omillar tahlil qilindi;
- fermer xoʻjaligida intensivlashtirishning iqtisodiy samaradorligini oshirish boʻyicha ilmiy va amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi;
- fermer xoʻjaliklarining iqtisodiy samaradorligini oshirish yoʻllari boʻyicha tavsiyalar ishlab chiqildi;

Bitiruv malakaviy ish obyekti sifatida Qarshi tumani “Xaydarov Aziz Mirzamaxmudovich” fermer xoʻjaligi tanlab olindi.

Bitiruv malakaviy ishning ilmiy va amaliy ahamiyati: Bitiruv malakaviy ishning ilmiy ahamiyati shundaki, iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida fermer xoʻjaliklarida ishlab chiqarishni intensivlashtirish va uning samaradorligini oshirib borish muhim ahamiyat kasb etadi.

Shuningdek, ishlab chiqilgan taklif va tavsiyalar Qarshi tumani “Xaydarov Aziz Mirzamaxmudovich” fermer xoʻjaligifaoliyatida joriy etish mumkin.

Bitiruv malakaviy ishning tuzilishi va hajmi. BMI betdan iborat bioʻlib, kirish, uchta bob, xulosa va takliflar hamda foydalanilgan adabiyotlar roʻyxatidan iborat.

Xulosa va takliflar qismida bitiruv malakaviy ish boʻyicha asosiy natijalar umumlashtirib, asoslangan bir qator xulosa va takliflar berilgan.

I Bob. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida fermer xo‘jaliklarida ishlab chiqarishni intensivlashtirishning obyektiv zarurligi va nazariy asoslari.

1.1. Fermer xo‘jaliklarida ishlab chiqarishni intensivlashtirishning mazmuni va iqtisodiy mohiyati

Mamlakatlar iqtisodiyotida ro‘y berayotgan turli ijobiy o‘zgarishlar ko‘p jihatdan fermer xo‘jaliklarning rivojlanishi bilan uzviy bog‘liqdir. Mazkur sohaning qaror topishi va rivojlanishi fermer xo‘jaliklari sohasida ro‘y berayotgan har qanday o‘zgarishlarga ta’sirchan hisoblanadi.

O‘zbekistonda bozor munosabatlari rivojlanayotgan hozirgi vaqtda fermer xo‘jaliklarni rivojlanishini ifoda etuvchi qonuniyatlar va tamoyillarga asoslangan holda shakllanayotgan fermer xo‘jaliklarni rivojlantirishga alohida ahamiyat berib kelinmoqda.

Shu bilan bir vaqtda, iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlar tajribasi shundan dalolat beradiki, aholi turmush darajasining doimiy ravishda yuqori bo‘lishiga eng avvalo, fermer xo‘jaliklarni jadal rivojlantirish orqali erishilib kelingan. Shundan kelib chiqqan holda fermer xo‘jaliklarni rivojlantirish, uni iqtisodiyotdagi o‘rni va rolini yanada oshirish O‘zbekiston aholisi uchun ham g‘oyat muhim ahamiyatga ega. Qishloq xo‘jaligining intensiv rivojlanishi – bir gektar yer yoki bir bosh chorva moliga sarflanayotgan mehnat va moddiy sarflarni oshirish evaziga mahsulot ishlab chiqarishni ko‘paytirishdir. Yer birligi yoki bir bosh chorva moliga sarflanadigan mehnat va moddiy xarajatlar samarasiz o‘lishi mumkin emas. Intensiv rivojlanishning iqtisodiy mohiyati shundaki, sarflanayotgan mehnat va moddiy xarajatlarning o‘lishiga nisbatan olinayotgan mahsulot miqdori tezroq o‘lishi kerak. Boshqacha qilib aytganda, ishlab chiqarilayotgan mahsulotning bir birligi tannarxi nisbatan kamayib borishi lozim. Masalan, o‘tgan yili yetishtirilgan 2000 tonna donning hosildorligi 40 sentnerni har bir sentneri tannarxi 500 so‘mni tashkil etadi, deb faraz qilaylik. Joriy yilda don ekilgan har gektar maydonga mehnat va moddiy sarflarni 10 foizga ko‘p qildik. Agarda hosildorlik ham 10 foizga yoki undan kamga oshsa, intensiv rivojlanishning samarasi 0 ga teng bo‘lar edi. Bu holda intensiv rivojlanishning iqtisodiy mohiyatini ko‘rsatish imkoni yo‘q. Agarda sarflangan mehnat va moddiy xarajatlar o‘lishiga nisbatan hosildorlik tezroq o‘sgan bo‘lsa, intensivlashtirishning iqtisodiy mohiyati ochilgan bo‘lar edi. Masalan, xarajatlar 10 foizga oshgan holda hosildorlik 12 foizga oshsa, demak, mahsulot birligining tannarxi nisbatan pasaygan bo‘ladi. Ana shu tarzda rivojlanish yo‘li intensiv rivojlanish yo‘li deb yuritiladi. Intensiv rivojlanish yo‘lining imkoniyatlari cheklanmagan bo‘lib, resurslar tanqisligi yoki cheklanganligi sharoitida juda muhim ahamiyatga ega. Shu sababli ham mamlakat iqtisodiyoti tarmoqlarini, jumladan,

qishloq xo‘jaligini intensivlashtirish har bir davlat iqtisodiy siyosatining asosini tashkil etadi.

Iqtisodiy fan ishlab chiqarishni rivojlantirishning ikki yo‘lini bir-biridan farq qiladi. Birinchi yo‘l ekstensiv rivojlanish yo‘li bo‘lib, mahsulotlar ishlab chiqarish hajmining ko‘payishi ishlab chiqarish jarayoniga yangi va yangi resurslar (yer, chorva mollarining soni va h.k.) jalb qilish hisobiga ta‘minlanadi. Bunda mahsulot hajmining ko‘payishi asosan ishlab chiqarish omillarining ko‘payishi hisobiga yuz beradi. Masalan, o‘tgan yili xo‘jalik 500 gektar yerga don ekib, har gektaridan 40 sentnerdan, jami 2000 tonna yalpi hosil olgan edi. Joriy yilda esa donli ekinlardan 3000 tonna yalpi hosil oldi. Shu 3000 tonna hosilni olish uchun jami o‘tgan yildagidan 100 gektar ko‘p yoki 600 gektarga don ekildi. Hosildorlik esa joriy yilda ham 40 sentnerni tashkil qildi. Mahsulot ishlab chiqarishni bu yo‘l bilan ko‘paytirish ekstensiv yo‘l hisoblanadi. Albatta, 600 gektar yerga 500 gektar yerga nisbatan ko‘p urug‘lik, ko‘p mehnat resurslari va boshqa xarajatlar sarflangan. Lekin bu xarajatlar bir gektar yerga oldingi yil darajasida qolgan.

Ishlab chiqarish resurslarini ko‘proq jalb etish natijasida rivojlantirishga ekstensiv rivojlanish yo‘li deb baho berish qabul qilingan. Bu yo‘lning imkoniyatlari cheklangan. Chunki barcha ishlab chiqarish resurslari - yer, suv, mehnat resurslari, texnika, xomashyolar, barcha barchasi cheklangan.

Darhaqiqat, har bir davlatning hududi, yer resurslari cheklangan bo‘lib, uni xohlagancha ko‘paytirish mumkin emas. Resurslar cheklangan holda insonlarning, ishlab chiqarishning talab va ehtiyojlari o‘rib boradi. Bunday holda ishlab chiqarishni rivojlantirishning boshqa yo‘lini topish zarurati tug‘iladi. Bu yo‘l – intensiv rivojlanish yo‘lidir.

Intensivlashtirish o‘z mohiyatiga ko‘ra, qishloq xo‘jaligida ma‘lum chegaralarga ega. Masalan, qishloq xo‘jaligi ekinlarini parvarishlashda har bir texnologik jarayon uchun optimal agrotexnika muddatlari mavjud. Yer haydash uchun yer haydovchi traktor, ekish uchun ma‘lum miqdordagi ekish agregati, hosilni o‘rish uchun (donchilikda) kombaynlar bo‘lishi kerak.

Har bir ekin turi uchun zarur mineral o‘g‘it miqdori belgilangan. Agarda meyordan ortiq mineral o‘g‘it solinadigan bo‘lsa, ekinning hosildorligiga salbiy ta‘sir etib, uning kamayishiga ham olib kelishi mumkin. Bu, o‘z navbatida, intensivlashtirishning ma‘lum darajada cheklanganligidan dalolat beradi. Bu masalaning yechimi fan - texnika taraqqiyotidadir. Fan - texnika taraqqiyoti deganda fanning, texnikaning va texnologiyaning barqaror rivojlanib borishi tushiniladi. Boshqacha qilib aytganda, fan - texnika taraqqiyoti – mavjud bilimlar natijasida ularning boyitilishi va boyitilgan bilim asosida yangi unumli texnikalar, progressiv texnologiyalarning yaratilishidir. Oldingisiga qaraganda unumli texnika va

texnologiyalar yaratilishi natijasidagina intensivlashtirish cheksiz rivojlanitirilishi mumkin.

Fanning rivojlanishi natijasida o'simlik va chorva hayvonlarining yangidan - yangi xususiyatlari ochilmoqda. Natijada, ushbu yangi xususiyatlar talabidan kelib chiqqan holda texnologiyalar o'zgaradi va mahsulot ishlab chiqarish ko'payadi. Bu borada fan - texnika taraqqiyotining ishlab chiqarishni intensivlashtirishga ta'siri chegaralanmagan. Ishlab chiqarishga qishloq xo'jaligi ekinlari yangi navlarining joriy etilishi bilan intensivlashtirish yanada kuchayadi. Masalan, hozirda paxta va bug'doyning serhosil navlari yaratilmoqda. Bu, o'z navbatida, qishloq xo'jaligini yangi bosqichga ko'taradi. Ishlab chiqarishni intensivlashtirish ishlab chiqarish konsentratsiyasini oshiradi, korxonalarda ishlab chiqarishni ixtisoslashtirishni kuchaytiradi. Ixtisoslashuvning kuchayishi ishlab chiqarishning mexanizatsiyalashish jarayonini oshiradi, mahsulotlar birligi tannarxining nisbatan oshib ketmasligini ta'minlaydi. Bu esa, ishlab chiqarishning iqtisodiy samarasi oshishiga olib keluvchi asosiy omillardan biridir.

1.2. Fermer xo'jaliklarida ishlab chiqarishni intensivlashtirish va iqtisodiy samaradorlikni oshirishda fan-texnika taraqqiyoti, uning yo'nalishlari va intensiv texnologiyalarning o'rni

Fermer xo'jaliklarining agrar iqtisodiyotni mustaqil xo'jalik yuritish shakli sifatida vujudga kelishi zaruriyati iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy omillarga bog'liqdir.

Iqtisodiy omillar agrar ishlab chiqarishning samaradorligini oshirish va oziq-ovqat muammolarini hal qilishga bog'liq bo'lsa, ijtimoiy omillar qishloq xo'jaligi xodimlarini o'zlarining iqtisodiy manfaatlarini amalga oshirishdan iboratdir. Vaholanki fermer xo'jaliklarida uning azosi o'zining imkoniyatlari, mehnat faoliyati va shaxsiy manfaatdorligi hisobiga oila azolarining turmush sharoitini taminlaydi. Siyosiy omillar qishloq mehnatkashlarining siyosiy erkinliklarini taminlashni amalga oshirish bilan bog'liq bo'lib, fermer xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchi sifatida iqtisodiy jihatdan mustaqil xo'jalik yuritish subyekti sifatida, o'zining qarashlarini mustaqil ifodalovchi va mustaqil qarorlar qabul qiluvchi hisoblanadi.

Bozor iqtisodiyotiga o'tish sharoitida fermer xo'jaliklarning shakllanishi va rivojlanishini asosiy shart sharoitlari bo'lib quyidagilar hisoblanadi;

- davlat va jamoa xo'jaliklarning daromadlari darajasining pastligi;
- tarmoqning moddiy texnika bazasining pastligi;

- qishloq xo‘jalik mahsulotlari va qishloq xo‘jaligida foydalaniladigan sanoat ishlab chiqarish vositalari o‘rtasidagi baholar nomutonasibligi va ularni bartaraf etish hamda o‘rni qoplash bo‘yicha samarali mexanizmning mavjud emasligi;

- qishloq xo‘jaligi ishlarini bajarishda mustaqil faoliyat yuritish va qarorlar qabul qilishning mavjud emasligi;

- qishloq xo‘jaligi ishlovchilari o‘rtasida ish haqini tekis taqsimlanmaganligi;

- o‘zining mehnati natijalariga erkin va mustaqil egalik qilishning mavjud emasligi;

- qishloq xo‘jaligida shaxsiy tamorqa uchastkasidagi va jamoa xo‘jaligida mehnatning ishtiyoqlama xarakterda bo‘lishi va ular o‘rtasidagi nomutanasiblik;

- mehnat resurslarini samarasiz taqsimlanishi va foydalanishi.

Ushbu shart-sharoitlarni bartaraf etish, bozor tamoyillarga mos xo‘jalik yuritish shakli sifatida faoliyat yuritish uchun qishloq xo‘jaligida fermer xo‘jaliklarining shakllanishi obyektiv zaruriyat hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan ham ishlab chiqarishning barqaror o‘sishi va o‘zini-o‘zi moliyaviy mablag‘ bilan taminlash, iqtisodiy jihatdan mustaqil, yuqori daromad olish va uni erkin taqsimlash hamda mustaqil tasarruf etish uchun fermer xo‘jaliklari asosiy qishloq xo‘jaligi tovar ishlab chiqaruvchilari sifatida faoliyat yuritishlari nafaqat tashkiliy va iqtisodiy balki ijtimoiy jihatdan ham muhim omildir.

Har bir davlat iqtisodiyotining yuksalishida fan-texnika taraqqiyoti muhim jamiyatga ega. Ayniqsa, qishloq xo‘jaligida moddiy-texnika resurslarining shakllantirilishi va yanada rivojlantirilishi uchun fan-texnika taraqqiyoti katta ahamiyat kasb etadi.

Umuman olganda, fan-texnika taraqqiyoti yirik ishlab chiqarish uchun xarakterli bo‘lgan fan va texnikaning muttasil ravishda va o‘zaro bog‘liq holda rivojlantirilishidir. Insoniyatning kundan-kunga ortib boruvchi ehtiyojlarini qondirish uchun fan-texnika taraqqiyotini yanada jadallashtirish tabiiy jarayon bo‘lib bormoqda.

Fan - texnika taraqqiyoti intellektual ong rivojlanish mahsuli bo‘lib, qishloq xo‘jaligida u bilan bog‘liq bo‘lgan jami fanlardagi o‘zgarishlar, rivojlanishlar, ularning yanada taraqqiy etishi, texnika-texnologiyalarni yaratish va u bilan shug‘ullanuvchi malakali kadrlar tayyorlash natijasida yanada yuksakliklarga erishish demakdir. Uning asosiy maqsadi esa samarali, yangi qishloq xo‘jalik texnikalarini, ekologik, jismonan va ma‘nan talablarga javob beruvchi uskunalarni, texnologiyalarni, kimyoviy vositalar, o‘simlikchilikda yangi navlarni, chorvachilikda yangi zotlarni yaratish, mavjud vositalar va texnologiyalarni takomillashtirib, mehnat unumdorligini oshirishdan iborat. Shuningdek, qishloq xo‘jaligida ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar miqdorini oshirish va sifatini yaxshilash ularni qayta

ishlash va iste'molchigacha yetkazib berish jarayonni muammosiz tashkil etish ham fan texnika taraqqiyotining maqsadlaridan biridir. Ushbu maqsad negizida esa respublika iqtisodiyotini yuksaltirish yotadi.

Fan texnika taraqqiyotining mohiyati fan va texnikaning yuksak sur'atlar bilan o'sishi uchun bir-biri bilan uzviy ravishda bog'lanib, taraqqiy etishidan iborat. Uni jadallashtirish zaruriyati bir nechta sabablarga asoslanadi;

Birinchidan fan texnika taraqqiyoti tufayli bir birlik qishloq xo'jalik mahsuloti ishlab chiqarish uchun zarur bo'lgan mehnat sarfini kamaytirish va mehnat unumdorligini oshirishga erishish;

Ikkinchidan, yaroqsiz holga keltirilgan va eski, lekin ishlatilayotgan qishloq xo'jalik texnika, asbob-uskunalar, texnologiyalarini yangi, zamonaviy va sifatisiga almashtirish hamda shu orqali moddiy-texnika resurslaridan oqilona foydalanashga erishish. Ayniqsa, xom-ashyoni qayta ishlab to tayyor mahsulot yaratgunga qadar bo'lgan jarayonlarda yangi texnika-texnologiyalardan foydalanishda, fan texnika taraqqiyotining ahamiyati beqiyos.

Uchinchidan qishloq xo'jalik va sanoatda ishlab chiqarishni tashkil etishda ixtisoslashtirish, korxonalarni bir joyda to'plashning o'z o'rni bor. Ana shuni ta'minlash uchun ham fan texnika taraqqiyoti zarurdir.

To'rtinchidan qishloq xo'jaligini, umuman ishlab chiqarish jarayonini tashkil etish, rivojlantirish uchun kadrlarni to'g'ri tanlash ham muhim. Fan texnika taraqqiyoti esa yangi-yangi kasblarning vujudga kelishini talab qiladi va ishlovchilarni kasb mahoratini oshirishga undaydi.

Beshinchidan fan texnika taraqqiyoti orqali iqtisodiyotning, xalq xo'jaligining barcha tarmoqlari alohida-alohida va bir-biri bilan uzviy ravishda bog'liq holda rivojlantiriladi.

Fan texnika taraqqiyotini rivojlantirish, texnika-texnologiyalarda tub o'zgartirish kiritish negizida albatta mehnat unumdorligini oshirishga erishiladi. Fan texnika taraqqiyoti ikki shaklda amalga oshiriladi: 1) evolyusion yoki bosqichma-bosqich shakl (bunda fan va texnika meyor bilan, sekinroq va qisman takomillashib boradi); 2) revolyusion yoki inqilobiy shakl (bunda qonun-qoidaga asosan yangi texnika va texnologiyani vujudga keltirish hamda jamiyat ishlab chiqaruvchi kuchlarni tubdan o'zgartirishga erishiladi).

Fan texnika taraqqiyotining jadal sur'atlar bilan rivojlantirilishi iqtisodiyotni har tomonlama intensivlashtirish hisobiga mahsulot sifatini qat'iy yaxshilashning hal qiluvchi vositasi hisobiga sodir bo'ladi. Qishloq xo'jaligining texnikaviy jihatdan yangilash, yangi-yangi texnologiyalar yaratish, undagi moddiy-texnika bazasini tubdan o'zgartiradi. Bular bilan bir qatorda ishlab chiqarishni elektlashtirish, kimyolashtirish, kompyuterlashtirish, avtomatlashtirish va mexanizatsiyalash kabi fan

texnika taraqqiyotining yoʻnalishi orqali fan va texnika ishlab chiqaruvchi kuchga aylanadi.

Fan texnika taraqqiyotining yana boshqa yoʻnalishlari ham mavjud, bular: energitika rivojlantirish, transport, aloqa turlarining yangilarini vujudga keltirish; har hil turdagi texnologiyalarni oʻzlashtirib, fan va ishlab chiqarishga tatbiq etish; yangi konstruktiv materiallarni kashf qilish va foydalanishini yoʻlga qoʻyish; biotexnologiya, chiqitsiz texnologik jarayonlarni ishlab chiqarishga tatbiq etish va hokazo.

Qishloq xoʻjaligida esa fan texnika taraqqiyotining yoʻnalishlari xalq xoʻjaligidagi yoʻnalishlaridan ozroq farq qiladi. Bular quyidagilar: yangi yerlarni oʻzlashtirish, yerlarning meliorativ holatini yaxshilash, yangi sifatli sugʻorish vositalari va texnologiyalarini yaratish, dehqonchilikda kam suv talab etadigan, tezpishar va yuqori hosil beruvchi urugʻ navlarini, sermaxsul chorva mollarini yaratish, mavjud intensiv texnologiyalarni takomillashtirish; qishloq xoʻjaligiga servis xizmatlarini koʻrsatish, mahsulotlarni kayta ishlash, sifatli saqlash va isteʼmolchilarga oʻz vaqtida yetkazib berish qobiliyatiga ega boʻlgan texnologiyalar va tadbirkorlik subyektlarini shakllantirish hamda fan texnika taraqqiyotini qishloq xoʻjalik ishlab chiqarishga oʻz vaqtida joriy etishga xizmat kiluvchi raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash va ularni ragʻbatlantirish kabilar.

Fan texnika taraqqiyoti ishlab chiqarishni intensivlashtirish va uning samaradorligini oshirishdagi hal qiluvchi yoʻnalishlaridan biri. Intensivlash-umumlashtirish, serunumlik degan maʼnolarni anglatadi.

Fan texnika taraqqiyoti joriy qilinib, yangi texnikani kiritish natijasida mahsulot tannarxi ham kamayadi, bu esa quyidagi formula bilan aniqlanadi:

$$\Delta S = (T_1 - T_t) \cdot A_t$$

Bunda ΔS - yangi texnikani joriy qilib, tannarxni kamaytirishdan kelib chiquvchi samaradorlik.

T_t - yangi mahsulot tannarxi (t yildagi)

T_1 - eski mahsulot tannarxi

A_t - yangi mahsulotning t yildagi hajmi,

Bundan esa foyda qay darajada oʻzgarishi formulasi ham

$$\Delta F_{o_t} = (B_t - T_t) - (B_1 - T_1) \cdot A_t$$

ΔF_{o_t} - yilda foydaning oʻsishi, soʻm hisobida;

B_t - texnika kiritgandan keyingi ulgurji baho;

T_t - texnika kiritgandan keyingi bir birlik mahsulot tannarxi;

B_1 - yangi texnika kiritmasdan oldingi ulgurji baho;

T_1 - yangi texnika kiritmasdan avvalgi bir birlik mahsulot tannarxi;

A_t - yangi mahsulotning t yildagi hajmi.

II bob. Fermer xo‘jaliklarida qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishni intensivlashtirish iqtisodiy samaradorlik ko‘rsatkichlari tahlili

2.1. Qarshi tumani “Xaydarov Aziz Mirzamaxmudovich” fermer xo‘jaligining tashkili-iqtisodiy tasnifi va rivojlanish holati tahlili

Respublikada amalga oshiralayotgan iqtisodiy islohotlarni rivojlantirish va isloh qilish hozirgi kunning asosiy vazifasi bo‘lib, shu yo‘l orqali davlatimiz iqtisodiy-ijtimoiy va siyosiy vazifalarni hal etishi oson kechadi. Bunda respublikaga chet el investitsiyasini jalb qilish, iqtisodiy aloqalarni kengaytirish va mustaxkamlash, fermer xo‘jaliklarga erkinlik berish va zarur shart-sharoit yaratish ustuvor yo‘nalishlar sifatida belgilab olindi.

Fermer xo‘jaligi rivojlangan mamlakatlarning uzoq davrli tajribasida o‘zining samaradorligi, raqobatbardoshligi, bozor konyunkturasiga tez moslasha olishi kabi xususiyatlarini namoyon eta oldi. Shunga ko‘ra, O‘zbekistonda ham fermer xo‘jaliklarining rivojlanishiga katta e‘tibor qaratilib, ular faoliyatining zarur iqtisodiy shart-sharoitlari yaratildi, meyoriy-huquqiy asoslari ishlab chiqildi.

O‘zbekistonda bozor munosabatlariga o‘tish sharoitida fermer xo‘jaliklarining tashkil topishi agrar islohotlarning asosiy mazmunini tashkil etdi. Fermer xo‘jaliklarining tashkil etilishi bosqichma-bosqich va izchillik asosida olib borildi.

Prezidentimiz o‘z asarlarida mamlakatimizda fermer xo‘jaliklarini moddiy-texnik ta‘minlash va moliyalash bo‘yicha bozor iqtisodiyoti tamoyillariga to‘la javob beradigan ishonchli tizim va mexanizmlar shakllantirilganligi va muvaffaqiyatli faoliyat ko‘rsatayotganligiga alohida e‘tibor qaratdilar.

O‘zbekiston respublikasi Prezidentining 2010 yil 18 oktabrdagi “Fermer xo‘jaliklari ixtiyoridagi yer uchastkalari hajmlarini yanada maqbullashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi fermer xo‘jaliklari tasarrufidagi yer uchastkalarini maqbullashtirish masalalari bo‘yicha maxsus komissiyasining xulosasini ko‘rib chiqib, O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi qonunning 6-moddasiga asosan potron qishloq fuqarolar yig‘ini hududida faoliyat ko‘rsatayotgan dehqonchilik-chorvachilikka ixtisoslashgan “Xaydarov Aziz Mirzamaxmudovich” fermer xo‘jaligiga tuman zahira yer maydoni ajratildi. Mazkur qarorga asosan “Xaydarov Aziz Mirzamaxmudovich” fermer xo‘jaligiga tuman zahira yer fondidan qo‘shimcha jami 31,7 gektar, shundan 28,5 gektar sug‘oriladigan ekin yer, 1 ga meliorativ holati yomon yerlar, 0,6 ga ariqlar, 0,6 ga yo‘llar va 1 ga boshqa yerlar o‘rnidan iborat yer maydoni ajratildi. Hozirgi kunda «Xaydarov Aziz Mirzamaxmudovich» fermer xo‘jaligining jami yer maydoni 83,4 genktarni tashkil etadi, shundan 77,4 ga sug‘oriladigan ekin yer, 5 gektar bog‘, 2 ga meliorativ holati yomon yerlar, 1,4 ga ariqlar, 1,3 ga yo‘llar, 1 gektar boshqa yerlar o‘rnidan iborat yer maydoni 49 yilga ijarag berildi.

2.1.1 - jadval

**Qarshi tumani “Xaydarov Aziz Mirzamaxmudovich” fermer xo‘jaligining
umumiy yer maydoni va ekin turlari bo‘yicha taqsimlanishi, gektar**

№	Ko‘rsatkichlar	Yillar			2013 yil 2011 yilga nisbatan %
		2011	2012	2013	
1.	Jami yer maydoni j.sh. k/x yaroqli yerlar	83,4	83,4	83,4	100
2.	Shundan sug‘oriladigan maydon	77,7	77,7	77,4	99,6
3.	Ekin maydoni	72,7	72,7	72,4	99,6
	Shundan:				
-	G‘alla	38	25	35	92,1
-	Paxta	25	38	27	108,0
-	Ozuqa ekinlari	9,7	9,7	10,4	107,2
4	Bog‘zor	5	5	5	100,0
5	Ariqlar	1,4	1,4	1,4	100,0
6	Yo‘llar	1,3	1,3	1,3	100,0
7	Meliorativ holati vomon yerlar	2	2	2	100,0
8	Boshqa yerlar	1	1	1,3	130,0

Jadval ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, fermer xo‘jaligining jami yer maydoni 83,4 gektarni tashkil etadi, shundan sug‘oriladigan yer maydoni 77, 4 ga va 2011 yilga nisbatan 4 foizga kamayganligini ko‘rishimiz mumkin. Fermer xo‘jaligi ko‘p tarmoqli xo‘jalik bo‘lib, bunda nafaqat paxtachilik va g‘allachilik tarmog‘i rivojlangan bo‘lib, balki chorvachilik tarmog‘i ham rivojlanib kelmoqda.

2.1.2 – jadval

Qarshi tumani “Xaydarov Aziz Mirzamaxmudovich” fermer xo‘jaligida
ekin maydonidan foydalanish ko‘rsatkichlari tahlili

№	Ekinlar	O‘lcho v birligi	Yillar			2013 yil 2011 yilga nisbatan %
			2011	2012	2013	
1.	G‘alla					
-	Hosildorlik	s/ga	38,0	25,0	35,0	92,1
-	Yalpi hosil	s	1520,0	1000,0	1750,0	115,1
2.	Paxta					
-	Hosildorlik	s/ga	33,8	32,0	37,0	109,2
-	Yalpi hosil	s	846,0	1216,0	998,0	118,0
3	Ko‘p yillik o‘tlar (pichan aylantirilgan)					
-	Hosildorlik	s/ga	97,9	115,5	90,0	91,9
-	Yalpi hosil	s	950,0	1120,0	936,0	98,5

2011-2013 yillardagi ma’lumotlar tahliliga ko‘ra, g‘alla hosildorligi 7,9 foizga kamaygan, paxta ekinining hosildorligi esa 9,2 foizga oganligini ko‘rishimiz mumkin, ko‘p yillik utlar yalpi hosili asosan ekin maydonining kengayishi hisobiga amalga oshirilgan.

2.1.3-jadval

Qarshi tumani “Xaydarov Aziz Mirzamaxmudovich” fermer xo‘jaligida chorvachilik tarmog‘ining rivojlanishi, bosh

№	Ekinlar	Yillar			2013 yil 2011 yilga nisbatan %
		2011	2012	2013	
1.	Jami qoramollar bosh soni	43	39	41	95,3
-	SH.j. sigirlar	14	14	14	100,0
-	Qo‘y va echkilar	120	120	135	112,5
2.	Otlar	1	1	1	100,0

Qarshi tumani “Xaydarov Aziz Mirzamaxmudovich” ko‘p tarmoqli fermer xo‘jaligi bo‘lib, bunda chorvachilik tarmog‘ini rivojlantirishga ham e‘tibor berilib kelinmoqda. Fermer xo‘jaligida 2013 yilda jami 41 bosh qoramol bo‘lib, shu jumladan 14 bosh sigirlar tashkil etadi. Xo‘jalikda shuningdek, 135 bosh qo‘y va echkilar va 1 ot mavjud

2.1.4-jadval

Qarshi tumani “Xaydarov Aziz Mirzamaxmudovich” fermer xo‘jaligida 1 sentner mahsulotni o‘rtacha sotish bahosi, so‘m

№	Ekinlar	Yillar			2013 yil 2011 yilga nisbatan
		2011	2012	2013	
1.	G‘alla	29823,85	59786,96	41284,94	138,43
2.	Paxta	86862,41	107067,02	124829,06	143,71
3	Go‘sh tirik, tirik vaznda	727941,17	825462,24	900000,00	123,64
5	Pilla	45000	106785,71	415666,67	923,70

Qarshi tumani “Xaydarov Aziz Mirzamaxmudovich” fermer xo‘jaligida ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning o‘rtacha sotish bahosi 2011-2013 yillar davomida

oshib borganligini ko‘rishimiz mumkin. Xususan, 1 s g‘alla mahsulotining o‘rtacha sotish bahosi 38,43foizga, paxta – 43,71 foizga, go‘sht tirik vaznda – 23,64 foizga, pilla – 823,7 foizga oshgan.

2.2. Qarshi tumani “Xaydarov Aziz Mirzamaxmudovich” fermer xo‘jaligida ishlab chiqarishni intensivlashtirish darajasi dinamikasi

Iqtisodiy fan intensivlashtirish ko‘rsatgichlarini ikkiga bo‘lib o‘rganadi. Birinchi guruhga intensivlashtirish darajasini ifodalovchi ko‘rsatgichlar kiritiladi. Bu ko‘rsatgichlar intensivlashtirishning bir tomonini ifoda etadi. YA’ni, intensivlashtirish darajasi ma’lum ekin turi, chorva hayvonlari uchun tanlangan texnologiya bo‘yicha mehnat va moddiy xarajatlar sarfi oshirilishini ko‘rsatadi. Bu ko‘rsatgichlarda bir gektar ekin maydoniga, bir bosh chorva hayvoniga sarflanayotgan (xarajatlarning) resurslarning miqdori ifoda etiladi. Bularga quyidagilar kiradi;

1) Ekin maydoni birligiga to‘g‘ri keladigan asosiy aktivlar va aylanma mablag‘larning miqdori. Bu xo‘jalikda mavjud asosiy aktivlar va aylanma mablag‘larning o‘rtacha yillik qiymatini yer (ekin maydoni, haydaladigan yerlar yoki qishloq xo‘jaligi yerlari) maydoniga bo‘lish bilan aniqlanadi.

2) Bir birlik yer maydoniga to‘g‘ri keladigan joriy xarajatlar miqdori.

3) Bir birlik yer maydoniga to‘g‘ri keladigan jonli va buyumlashgan mehnatning umumiy miqdori.

4) Bir birlik yerga to‘g‘ri keladigan energetik quvvatlar miqdori.

5) Har 100 gektar yerga to‘g‘ri keladigan chorva mollarining bosh soni.

Ana shu ko‘rsatgichlar tizimi intensivlashtirishning darajasini ifoda etadi.

Intensivlashtirishning iqtisodiy samaradorligini ifodalovchi ko‘rsatgichlar uning iqtisodiy mohiyatini ochib beradi. Ishlab chiqarishni intensivlashtirishning iqtisodiy samaradorligi bir qancha ko‘rsatgichlar yordamida aniqlanadi. Ularga quyidagilar kiradi:

1) Hosildorlik, s/ga.

2) Yer maydoni birligidan olinayotgan yalpi mahsulot.

3) Bir birlik yer maydonidan olinadigan foyda miqdori.

4) Mehnat unumdorligining oshishi.

5) Mahsulot birligi tannarxining nisbatan pasayishi.

6) Rentabellikning o‘shishi.

7) Fond qaytimining oshishi.

Ana shu ko‘rsatgichlar tizimi yordamida intensivlashtirishning samaradorligi aniqlanadi.

2.2.1 - jadval

**Qarshi tumani “Xaydarov Aziz Mirzamaxmudovich” fermer xo‘jaligida ishlab
chiqarishining intensivlashtirish ko‘rsatkichlari tahlili**

№	Ko‘rsatkichlar	O‘b	2011	2012	2013	O‘zgarish	
						+ ; -	%
1	Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan asosiy ishlab chiqarish vositalari	ming so‘m	14301,6	35806,3	101806,3	87504,7	711,9
2	Ekin maydoni	ga	72,7	72,7	72,4	-0,3	99,6
3	1 ga ekin maydoniga to‘g‘ri kelgan asosiy i/ch fondlari	m.s/ga	196,7	492,5	1406,2	1209,4	714,8
4	Ishlab chiqarilgan yalpi mahsulot:	m.s	136270,7	178471,5	200981,3	64710,6	147,5
a	1 ga ekin maydoni hisobiga	m.s/ga	1874,4	2454,9	2776,0	901,6	148,1
b	100 so‘m i/ch harajat/i hisobiga	so‘m	30,5	25,5	22,8	-7,7	74,8
5	Sotilgan mahsulot tannarxi	m.so‘m	61996,0	113446,4	160037,9	98041,9	258,1
-	SH.j. ishlab chiqarish xarajatlari	m.so‘m	44679,6	70045,2	88112,6	43433,0	197,2
6	Q/x mahsulotini	Ming so‘m	74274,7	65025,1	40943,4	-	55,1

	sotishdan olingan jami foyda sh.j.					33331,3	
a	1 ga ekin maydoni hisobiga	Ming so'm	1021,7	894,4	565,5	-456,1	55,4
b	100 sum i/ch harajat hisobiga	so'm	16,6	9,3	4,6	-12,0	28,0
6	Q/x i/ch rentabelligi sh.j.	%	119,8	57,3	25,6	-94,2	4,7 marta kamaygan

Yuqoridagi jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, "Xaydarov Aziz Mirzamaxmudovich" fermer xo'jaligida ishlab chiqarishining intensivlashtirish ko'rsatkichlari 2011-2013 yillar davomida asosan kamayib borgan. Bu asosan fermer xo'jaligida ishlab chiqarilgan mahsulotga ketgan xarajatlarning ortishi bilan bog'liq. Shu bilan birga 1gektar yer hisobiga to'g'ri keladigan asosiy ishlab chiqarish vositalari ushbu yillar davomida oshib borganligini ko'rishimiz mumkin va bu 714,8 foizni tashkil etgan. Mazkur fermer xo'jaligida qishloq xo'jaligi ishlab chiqarish rentabelligi 4,7 marta kamaygan. Demak xulosa qilishimiz mumkinki, fermer xo'jaligining raqobatbardoshligini oshirish va uni intensiv rivojlantirish uchun avvalombor xo'jalikda chngi zamonaviy texnikalarni olib kelish va ishlab chiqarish jarayoniga zamonaviy texnologiyalarnijoriy etish maqsadga muvofiq bo'lar edi.

2.3. Fermer xo'jaliklarida ishlab chiqarishning iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichlari tahlili va unga ta'sir ko'rsatuvchi omillar

Ishlab chiqarish samaradorligi juda murakkab iqtisodiy kategoriyadir. U obektiv iqtisodiy qonunlar, ijtimoiy ishlab chiqarishning asosini ifoda etuvchi-natijani, ya'ni oqibatni aks ettiradi. Oqibat yoki natija har qanday faoliyatning maqsadidir. Samara tushunchasi bilan iqtisodiy samara tushunchasini farqlash kerak.

Samara bu keng tushuncha bo'lib, har qanday tadbir yoki faoliyatning natijasida, o'g'itlardan foydalanish samarasi, ekinlar hosildorligi oshishida, yem-xashak samarasi, chorva mahsuldorligi oshishida ifodalanadi.

Iqtisodiy samaradorlik ishlab chiqarish vositalari va jonli mehnatni qo'llash orqali olingan foydali natija yoki jami resurslar birligiga olingan natijani ifoda etadi.

Iqtisodiy samaradorlikni aniqlashda dehqon va fermer xo'jaliklari faoliyatining iqtisodiy samaradorligini baholashga imkon beruvchi mezon va ko'rsatkichlar tizimini bozor munosabatlari mazmuniga mos ravishda ko'rib chiqish lozim.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida iqtisodiy samaradorligini baho berishdan manfaatdor bo'lgan tomonlar ko'p bo'lib, ularni shartli ravishda quyidagicha bo'lish mumkin:

- birinchi navbatda xo'jalik mulkdorlari bozordagi kuchli raqobat muhitiga bardosh berish hamda zarur moliyaviy natijalarga erishish maqsadida;
- mavjud va potentsial kreditorlar qarz berish yoki bermaslik, kredit shartlarini belgilash va uni kamaytirish kafolatlarini kuchaytirish, qarni qaytarish muddatini cho'zish yoki cho'zmaslik masalalarini to'g'ri hal etish maqsadida;
- xo'jaliklar bilan oldi-sotdi munosabatlariga kirishuvchi boshqa korxonalar hamkor sifatida uning ishonchligini baholash maqsadida;
- soliq organi soliq to'lovlarini to'g'ri hisoblash va o'z vaqtida buydjetga undirish maqsadida;
- auditorlar, xuquqshunoslar, davlat boshqaruvi va qonun chiqaruvchi organlar, dehqon va fermerlar, uyushmasi va boshqa bilvosita manfaatdor tomonlar.

Dehqon va fermer xo'jaliklari bir xil mehnat sarf qilgan holda turli shakllarda va turli yillarda turli natijalarga erishishi mumkin. Dehqon va fermer xo'jaliklari faoliyatiga baho berishda hamma ko'rsatkichlarni ikki guruhga: natural va qiymat ko'rsatkichlariga bo'lish mumkin.

1. Yerdan foydalanish ko'rsatkichlari:

- ekin turlari boyicha hosildorlik;
- 1 ga ekin maydonidan yalpi mahsulot, yalpi foyda, sof foyda;
- yerdan foydalanish koeffitsiyenti;

2. Asosiy va aylanma fondlardan foydalanish ko'rsatkichlari:

- fond qaytimi;
 - fond sig'imi;
 - foyda meyor (asosiy va aylanma fondlarga nisbatan);
 - aylanma fondlar aylanishi koeffitsiyenti;
- bir traktor va avtomashinaning yillik ish yuklamasi;
3. Chorva mollari mahsuldorligi ko'rsatkichlari:

- bir bosh sigirdan olingan yillik o'rtacha sut miqdori;
- boquvdagi mollarning sutkalik vazn ortishi;
- so'uishdagi mollarning tirik vazni;
- ona hauvonlardan bola olish darajasi;
- bir bosh tovuqdan olingan yillik tuxum miqdori;
- bir bosh qo'udan olingan yillik jun miqdori;

- 1 sentner ozuqa birligiga yetishtirilgan chorva mahsuloti;
- 1 sentner vazn ortishiga yoki 1 sentner sutga ozuqa sarfi;
- 4. Mehnat unumdorligi ko'rsatkichlar:
 - 1 sentner mahsulotga mehnat sarfi;
 - 1 gektar yerga mehnat sarfi ;
 - o'rtacha bir ishlovchiga yalpi mahsulot, yalpi foyda, sof foyda;
- bir birlik mehnat sarfiga yalpi mahsulot, yalpi foyda sof foyda;
- 5. Xarajatlar sarfi ko'rsatkichlari:
 - mahsulotlar tannarxi;
 - 1 gektar yerga sarflangan ishlab chiqarish xarajatlari;
 - 1 bosh chorva molini boqish xarajatlari;
- 1 so'mlik ishlab chiqarish xarajatiga yalpi mahsulot, yalpi foyda;
- 6. Rentabellik ko'rsatkichlari:
 - aktivlar rentabelligi;
 - mahsulot sotish rentabelligi ;
 - xususiy kapital rentabelligi;
- tannarxga nisbatan rentabellik darajasi.

Qishloq xo'jaligi iqtisodiy samaradorligiga baho berish uchun ishlab chiqarish jarayoniga ta'sir qiluvchi turli omillar oqibatida kelib chiqadigan aniq ko'rsatkichlarga ega bo'lishimiz lozim. Shundagina dehqon va fermer xo'jaliklari ishlab chiqarish jarayonini yaxlit holda tahlil qilish va iqtisodiy samaradorligining asosiy yo'nalishlari to'g'risida ishonarli xulosalar chiqarish mumkin.

Dehqon va fermer xo'jaliklari ishlab chiqarishining samaradorligiga baho berishda sohaning pirovard natijalarga ta'sir qiluvchi o'ziga xos xususiyatlari hisobga olinishi lozim. Dehqon va fermer xo'jaliklari iqtisodiy samaradorligi uning natura va qiymat ko'rsatkichlari tizimi bilan ham aniqlanadi. Natura ko'rsatkichlariga dastavval: hosildorlik va Dehqon va fermer xo'jaliklari mollarining mahsuldorlik ko'rsatkichlari kiradi.

Odatda, hosildorlik darajasi boshqa ko'rsatkichlar miqdoriga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Ammo natura ko'rsatkichlari erishilgan samaradorlikning faqat bir tomonini aks ettira oladi. Iqtisodiy samaradorlikni aniqlash uchun hosildorlik va chorva mahsuldorligini boyicha muayyan ko'rsatkichlarga erishish jarayonidagi yalpi mehnat sarflarini bilish ham zarur. Bir xil darajadagi hosildorlikka turli miqdorda mehnat va mablag' sarflangan yoki mahsulot sifati turlicha bo'lishi ham mumkin. Bu kabi holatlar ishlab chiqarish samaradorligiga ta'sir ko'rsatadi.

Shu sababli, samaradorlikni aniqlashda xatolikka yo'l qoymaslik uchun ishlab chiqarilgan mahsulot miqdorining qiymat ko'rsatkichlariga tayanish lozim. Qiymat ko'rsatkichlari faqat hisob uchungina zarur bo'lmay, balki o'ziga xos iqtisodiy

ahamiyatga ham ega. Chunki, ular tovar-pul munosabatlarining rivojlanishida, ishlab chiqarish mahsuloti esa bozorda tovar sifatida qatnashadi.

Dehqon va fermer xo'jaliklarida iqtisodiy samaradorlikning asosiy qiymat ko'rsatkichlari yalpi daromad, sof daromad va foydani o'z ichiga oladi.

Iqtisodiy samaradorlikning eng muhim ko'rsatkichlari – yalpi mahsulotni (YAM) jonli va buyumlashgan mehnatga bo'lgan nisbati orqali aniqlanadi.

$$I_{\text{Я}} = \frac{YAM}{I_x + A_{\phi} + XK_{\phi}};$$

Bu yerda: YAM – yalpi qishloq xo'jaligi mahsuloti qiymati, so'm; I_x – ishlab chiqarish xarajatlari, so'm; A_{ϕ} – asosiy ishlab chiqarish fondlari; K_{ϕ} – fondlarning samaradorlik koeffitsiyenti;

Yalpi daromad (YAD)ning jonli va buyumlashgan mehnatga bo'lgan nisbati:

$$I_{\phi} = \frac{YAD}{I_c + A_{\phi} * K}.$$

Dehqon va fermer xo'jaliklarida yalpi daromad miqdori mahsulotlarning yetishtirilib, sotilishiga, ularning sotilgan bahosi va moddiy sarflar miqdoriga ham bog'liq.

Sof daromadning jonli va buyumlashgan mehnatga bo'lgan nisbati quyidagicha:

$$\mathcal{D}_q = \frac{CD}{I_c + A_{\phi} * K_{\phi}}$$

Sof daromad qo'shimcha mahsulotning qiymatdagi ifodasi bo'lib yalpi mahsulot va ishlab chiqarish xarajatlari o'rtasidagi farqidan iboratdir.

Sof daromad ishlab chiqarishni yanada kengaytirish va ijtimoiy iste'mol fondlarini o'stirish manbai hisoblanadi. Sof daromad yaratilgan va realizatsiya qilingan sof daromadga bo'linadi. Realizatsiya qilingan sof daromad xo'jalik olgan foydaga to'g'ri keladi. Bunda foydaning (F) jonli va buyumlashgan mehnat xarajatlariga nisbati olinadi:

$$I_{\phi} = \frac{\Phi}{I_c + A_{\phi} * K_{\phi}}.$$

Foyda sotilgan tovar mahsulot hisobiga olingan so'mmadan to'liq tannarxni ayirib tashlash bilan aniqlanadi. U quyidagi formula yordamida hisoblanadi:

$$\Phi = (C_m - K_{\phi}C) - C_k;$$

Bu yerda: S_m – sotilgan mahsulotdan olingan pul;

$K_{\phi}C$ - qo'shilgan qiymatdan olinadigan soliq;

C_k – to'liq yoki kommertsiya tannarxi.

Rentabellik darajasi muhim iqtisodiy kategoriya bo'lib, dehqon va fermer xo'jaliklarining zararsiz ishlash darajasini ifodalaydi.

Rentabellikda faqat jonli mehnatgina emas, qilib bo'lingan mehnat, sotilgan mahsulotning sifati, ishlab chiqarishni tashkil qilish va uni boshqarish darajasi ham

aks ettirilgan bo'ladi. Odatda, rentabellik ikkiga: iqtisodiyot tarmoqlari rentabelligi va dehqon va fermer xo'jaliklari rentabelligiga bo'linadi.

iqtisodiyot tarmoqlari rentabelligi yaratilgan jami sof daromad, dehqon va fermer xo'jaliklari rentabelligi realizatsiya qilgan sof daromadi orqali aniqlanadi. Rentabellik darajasini aniqlashda foydaning jami xarajatga yoki to'liq tannarxga nisbati olinadi.

Ishlab chiqarish rentabellik darajasi quyidagi formula yordamida aniqlanadi:

$$Pc = \frac{CI}{Tm} \times 100\% \quad \text{yoki} \quad P\partial = \frac{\Phi}{Tk} \times 100\%;$$

Bu yerda: Rs va Rd – sof daromad va foyda boyicha rentabellik darajasi (foiz);

Tm va Tk – ishlab chiqarish tannarxi va kommertsiya (to'liq) tannarxi, so'm.

Rentabellik darajasi-mahsulot ishlab chiqarish va realizatsiya asosida qilingan moddiy va mehnat sarflari birligi evaziga olingan foyda bilan belgilanadi.


Ishlab chiqarish fondlaridan foydalanishning holatini aniqlash uchun foyda normasi ko'rsatkichidan foydalanamiz.

Foyda normasi deyilganda foydaning o'rtacha yillik asosiy aylanma mablag'larga bo'lgan nisbati tushuniladi.

$$\Phi_H = \frac{\Phi}{Acoc\phi + A\ddot{u}n\phi} \times 100\%$$

Foyda normasi dehqon va fermer xo'jaliklari sarflangan 1 so'mlik ishlab chiqarish fondlari hisobiga qancha foyda olganligini bildiradi. Masalan, foyda normasi 25 foiz, deb faraz qilsak, 1 so'mlik asosiy va moddiy aylanma vositalar qiymati hisobiga 25 tiyin foyda to'g'ri kelishini bildiradi.

Dehqon va fermer xo'jaliklari ishlab chiqarish samaradorligiga har tomonlama baho berish uchun mehnat unumdorligi, mahsulot tannarxi, shuningdek, fondlar, investitsiya, kapital qoyilmalari va ularning samaradorligi ham hisoblanadi.



2.3.1 – rasm. Qishloq xo‘jaligida o‘simlikchilik sohasini intensivlashtirishda agrotexnologiyalardan foydalanish

III Bob. Istiqbolda fermer xo‘jaligida ishlab chiqarishni intensivlashtirish va uning iqtisodiy samaradorligi oshirish yo‘llari .

3.1. Fermer xo‘jaliklarida ishlab chiqarishni intensivlashtirishning asosiy yo‘nalishlari

Ishlab chiqarishni intensivlashtirishni doimiy rivojlantirish talab etiladi. Qishloq xo‘jaligida intensivlashtirish quyidagi asosiy yo‘nalishlarda olib boriladi: Kimyolashtirish - qishloq xo‘jaligini intensivlashtirishning asosiy yo‘nalishlaridan biridir. Samarali mineral o‘g‘itlarni ishlab chiqarish, urug‘liklarga kimyoviy ishlov berish, turli kasalliklar va zararkunandalarga qarshi kurashish va shu kabilar haqida gap borganda kimyolashtirishning juda katta ahamiyatga ega ekanligini bilamiz. Kimyolashtirishsiz qishloq xo‘jaligida sezilarli muvaffaqiyatga erishish mumkin emas.

Qishloq xo‘jaligini intensivlashtirishning boshqa bir yo‘nalishi – ishlab chiqarishni mexanizatsiyalashtirish va avtomatlashtirishdir. Mehnat unumdorligini oshirish, ishlab chiqarishning samarali faoliyat ko‘rsatishi ish jarayonlarini mexanizatsiyalash va avtomatlashtirish darajasiga bog‘liq. Og‘ir ish jarayonlarini mashinalar yordamida bajarish nafaqat iqtisodiy samaradorlikni oshiradi, balki og‘ir ishlardan kishilarni ozod qilish, ijtimoiy masalani ham ma‘lum darajada ijobiy hal etishga olib keladi.

Qishloq xo‘jaligini intensivlashtirishning boshqa bir yo‘nalishi ishlab chiqarishni elektrlashtirishdir. Elektr imkoniyatlaridan foydalanmasdan ishlab chiqarishning bugungi rivojini ko‘rish mumkin emas.

Fan, texnika va texnologiya yutuqlarini ishlab chiqarishga joriy etish ham intensivlashtirish yo‘nalishlaridan biridir. Kadrlarning malakasini, bilimini oshirish ham eng kerakli yo‘nalishlar sifatida yuzaga chiqadi.

Xulosa qilib aytganda, yetishtiriladigan mahsulot miqdori va sifatini oshirishga olib keladigan, mahsulot va xizmatlar tannarxi pasayishiga, mehnat unumdorligi oshishiga ta’sir etuvchi barcha omillar e’tibordan qolmasligi va o‘z o‘rnida ishlatilishi lozim.

Qishloq xo‘jaligidagi faol, lekin ko‘pincha oqilona bo‘lmagan faoliyat ta’sirida ekologik muammolar o‘tkirlashadi. Tabiiy resurslardan oqilona foydalanishda iqtisodiy manfaatdorlikning yo‘qligi, atrof-muhitni muhofaza qilishga ajratiladigan mablag‘lar yetarli emasligi, tabiatni qo‘riqlash va resurlarni tejash texnologiyalarni rad etishga olib keladi. Murakkab iqtisodiy vaziyat korxonalarda tuproq unumdorligini oshirish va yerning ekin ekish holatini yaxshilash bo‘yicha kompleks ishlarni to‘liq amalga oshirish imkonini bermayotir. Natijada yirik ko‘lamli degradatsiya va qishloq xo‘jaligi ekin yerlarining eroziya tufayli qisqarishi


kuzatilmoqda, tuproqda gumus va boshqa ozuqa moddalari kamaymoqda, shoʻrlanish, botqoqlashuv, ogʻir texnikaning ortib ketishi, tabiiy hosildorlik kamayishi yuz bermoqda. Ekologik xavfni oqova suvlarni tozalash va ishlab chiqarish chiqindilarini utilizatsiyalash masalalarini qiyinlashtirayotgan mayda konserva, sut va boshqa korxonalar sexlarning nazoratsiz qurilayotgani boʻlmoqda.

Shu sababli, ishlab chiqarishni rivojlantirish variantlarini tanlashda ularni amalga oshirishning atrof-muhitga salbiy taʼsirini ham hisobga olish zarur. Zamonaviy sharoitda xoʻjalik faoliyatini bashorat qilishda nafaqat iqtisodiy, balki, ekologik iqtisodiy samaradorlikni, yaʼni ishlab chiqarishning ekologiya uchun oqibatini ham hisobga olib, belgilash kerak boʻladi.

Qishloq xoʻjaligi ishlab chiqarishi ekologik-iqtisodiy samaradorligining mezonini boʻlib daromad va sof foyda odamlar sogʻligi va tabiatni muhofaza qilish manfaatlariga javob beruvchi atrof-muhit sifatining naromativ talablariga rioya qilish hisoblanadi. Ushbu mezonga erishish darajasi joriy xarajat va kapital qoʻyilmalarining ekologik-iqtisodiy taʼsir etish koʻrsatkichlari tizimi hisoblanadi.

Ekologik-iqtisodiy taʼsir etish – bu ishlab chiqarish taʼsiri ostida yuz beruvchi ekologik parametrlar oʻzgarishining pulda baholanishi. U ijobiy yoki salbiy boʻlishi mumkin. Ijobiy miqdor sifatida ekologik-iqtisodiy samara, salbiy sifatida ekologik-iqtisodiy zarar chiqadi.

Ekologik-iqtisodiy samara – tabiatni qoʻriqlash tadbirlarini amalga oshirish natijasida foydaning qiymatli oʻsishidir. Uni hisoblashning asosi boʻlib, tuproq, suv, havodagi ifloslanish darajasining pasayishi, tuproq hosildorligining oshishi, ekologik toza mahsulotlar chiqishining ortishi kabilar boʻlishi mumkin.



3.1.1 – rasm. Qishloq xo'jaligini intensivlashtirishda mashinasozlik, agrokimyoservis xizmati ko'rsatuvchi korxonalarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash

Ekologik-iqtisodiy zarar – atrof-muhit holatining yomonlashuvi natijasida qishloq xo'jaligining qiymat shaklidagi haqiqiy yoki ehtimoliy zarari yoki bu zararlarni qoplash uchun qo'shimcha xarajatlardir.

Qishloq xo'jaligida zarar birinchi navbatda, havoning ifloslanishi va sug'orish uchun ifloslangan suvdan foydalanishdan paydo bo'ladi, natijada qishloq xo'jaligi ekinlari hosildorligi kamayadi, tuproq sho'rlanishiga qarshi kurash sarflari ortadi, ayrim holatlarda qishloq xo'jalik ekinlari assortimenti o'zgaradi. Chorvachilikda zarar chorva mollari mahsuldorligining kamayishi ko'rinishida, ya'ni yirik vazn, sut sog'ib olish, tuxum soni kamayishi ko'rinishida bo'ladi. Ekstremal holatlarda ko'p miqdordagi o'ta ifloslangan oqova suvlarning tashlanishi chorva mollari va parrandalarning to'liq halokatiga olib keladi.

Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining iqtisodiy samaradorligini baholashda tarmoqning o'ziga xosligini unutmaslik kerak. Qishloq xo'jaligida ishlab chiqarish tabiiy resurslardan foydalanish bilan bog'liq, shu bois qishloq xo'jaligini har tomonlama rivojlantirish va uning samaradorligini oshirish bo'yicha ishlar amalga oshirilganda atrof-muhitni saqlashga doir talablar hisobga olinmog'i lozim.

Qishloq xo'jaligi mashulotlari ishlab chiqarish hajmini ko'paytirish va uning iqtisodiy samaradorligini oshirishning zaruriy shartlari – turli agrotexnik va zootexnikaga oid tadbirlar o'tkazish asosida qishloq xo'jaligi ekinlari hosildorligining o'sishi va chorva hayvonlarining mahsuldorligidir. Shu bilan birga, taklif etilayotgan tadbirlarning iqtisodiy samaradorligini aniqlash ham mumkin.

Agrotexnik va zootexnika tadbirlarining iqtisodiy samaradorligi ushbu tadbirlarni uning uchun belgilangan xarajatlar yoki qo'llanilgan resurslarga taqqoslangan holda olingan samaraga qarab aniqlanadi.

Asosiy agrotexnik tadbirlar – ekin maydonlari tuzilishini optimallashtirish, almashlab ekishni o'zlashtirish, jadal va resurslarni tejaydigan texnologiyalardan foydalanish, o'g'itlar va o'simliklarni himoya qiladigan vositalardan foydalanish, qishloq xo'jaligi ekinlarining yangi navlarini ishlab chiqarishga joriy etish.

Ekin maydonlarining tuzilishini optimallashtirish raqobatbardosh tovarlar ishlab chiqarishni kengaytirish, chorvachilik tarmoqlarining ozuqaga bo'lgan ehtiyojlarini qondirishni ta'minlaydi, o'simlikchilikning samaradorligi oshishiga yordam beradi, tuproq va iqlim xususiyatlariga mos kelishi kerak. Shunday ekinlarni tanlash kerakki, 1 ga yerga kam xarajat va mehnat sarflab, ko'p mahsulot olinsin.

Ekin maydoni tuzilishini iqtisodiy baholash uchun quyidagi ko'rsatkichlardan foydalaniladi: 1 ga ekin maydoni va bir kishi/soat, 1 ga maydonga mehnat va moddiy-pul mablag'lari hamda mahsulot birligi xarajatlari hisobiga 1 ga maydon va 100 so'm xarajattan sof foyda.

Sof daromadning o'lchami hosildorlik darajasi, tannarx va sotish bahosiga bog'liq. Agar xarajatlar ekin guruhlariga bo'yicha hisobga olinsa, har bir ekin mahsuloti tannarxi, hisob-kitob yo'li bilan aniqlanadi. Shu bilan birga, hosildorlik va oxirgi 3-5 yilda 1 ga yerga o'rtacha xarajatlar aniqlanib, realizatsiya baholari korxonada keyingi yillarda yig'ilgan haqiqiy baholardan olinadi.

Ekin maydonlarining tuzilishi yaxshilanishi hisobiga o'simlikchilik mahsulotlarini ishlab chiqarishni ko'paytirish imkoniyatlari hisob-kitobida hamma imkoniyatlar va cheklashlarni hisobga olgan holda ekishning optimal tuzilmalarini ishlab chiqish lozim (hisoblash-konstruktiv va iqtisodiy-matematik usullar yordami bilan), keyin mahsulotlarning haqiqiy hajmini, haqiqiy umumiy maydondan ekinlarning haqiqiy hosildorligida, lekin ekin yerlari tuzilishi yaxshilanganda, ekinlardan olinish ehtimoli bo'lgan mahsulot bilan solishtiriladi. Optimallik mezoni sifatida sof daromadning maksimumidan foydalanish mumkin.

Almashlab ekishni o'zlashtirish va uning samaradorligini hisoblashda quyidagi masalalarga alohida e'tibor qaratish zarur:

- almashlab ekishlar ma'lum assortiment va sifatddagi tovar qishloq xo'jalik mahsulotlarining ko'zda tutilgan sotish hajmini ta'minlashi lozim;
- o'simlikchilik va chorvachilik mahsulotlariga (ozuqalar, urug'liklar va boshqalar) xo'jalikning ichki talab-ehtiyojlari qondirilishi;
- tarmoqlar, ferma va brigadalarning o'lchamlarini va yerdan foydalanish yo'nalishini hisobga olishni tashkil etish;
- qishloq xo'jaligi ekinlari va navlarning, ekin maydonlarining maqbul tuzilmalarini iqtisodiy baholari haqidagi ilmiy asoslangan ma'lumotlar asosida joriy etishi;
- qishloq xo'jaligi korxonasining ishlab chiqarish tarmoqlari texnikadan yuqori unumdorlik bilan foydalanishni ta'minlovchi almashlab ekishni tashkil etish;
- lalmi yerlarni o'zlashtirish hisobiga, ekin maydonlarini kengaytirish imkonini ko'zda tutish kerak.

Eng maqsadga muvofiq almashlab ekishni tanlash yoki ularning tizimini ishlab chiqish, ikkita-uchta variantni iqtisodiy baholash va taqqoslagandan keyingina mumkin bo'ladi.

Almashlab ekishni taqqoslash iqtisodiy baholash ko'rsatkichlarining quyidagi tizimi bo'yicha o'tkaziladi:

- 1 ga almashlab ekish maydoniga natural (ozuqa birligi) va pul (so'm) ifodasidagi yalpi mahsulotning chiqishi;
- 1 so'm/ishlab chiqarish xarajatlari va 1 kishi/soatga, yalpi mahsulotning chiqishi;
- 1 ga almashlab ekish maydoni va 100 ozuqa birligiga mehnat va moddiy-pul mablag'lari xarajatlari;
- 100 ozuqa birligining tannarxi;
- 1 ga almashlab ekish maydoni va 1 kishi/soatga olingan sof foyda;
- ishlab chiqarish rentabelligi darajasini foizlarda ifodalangan moddiy-pul xarajatlariga sof daromad nisbati sifatida;
- yerdan foydalanish koeffitsiyenti, almashlab ekish maydonining haydaladigan maydonga nisbati sifatida.

Taqqoslanadigan almashlab ekiladigan yer iqtisodiy bahosining mezonini – o'simlikchilik mahsulotlarining, mahsulot birligiga eng kam mehnat va mablag' sarflab, ko'p mahsulot chiqishi.

Intensiv va resurslarni tejash texnologiyasining samaradorligini baholashda quyidagi ko'rsatkichlar tizimidan foydalaniladi: qishloq xo'jaligi ekinlarining hosildorligi, 1 ga ekinga pul ko'rinishidagi yalpi mahsulotning chiqishi, 1 ga ekin ekishga mehnat va moddiy-pul mablag'lari xarajat, qo'shimcha mablag'larni qoplash, mahsulot birligiga mehnat sarfi va tannarx, 1 ga ekin ekishdan sof foyda, rentabellik darajasi.

Intensiv va resurslarni tejash texnologiyasining samaradorligini aniqlash uchun asos hosildorlikning o'sishi, mahsulot sifatini avvalgi yillardagiga yoki an'anaviy texnologiyadagiga solishtirgandagiga nisbatan yuqoriligi bo'ladi.

3.2. Iqtisodiyotni diversifikatsiyalash sharoitida fermer xo'jaliklarida mahsulot ishlab chiqarishning iqtisodiy samaradorligini oshirishning ustivor yo'nalishlari

Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining iqtisodiy samaradorligi asosan omillarning ikki guruhi bilan belgilanadi:

- korxonaning xo'jalik faoliyatiga bog'liq bo'lmagan, tashqi – narxni shakllantirish, soliqqa tortish, kreditlash, inqiroz jarayonlari, dotatsiyalar va tovon (kompensatsiya) to'lovlari, agrar qonunchilik va boshqalar;
- ichki – tashkilot ta'sir eta oladigan qishloq xo'jaligi ekinlarining hosildorligi, hayvonlar mahsuldorligi, mahsulot tannarxi, ishlab chiqarish texnologiyasi va uni tashkil etish, ixtisoslashuv va boshqalar.

Bugun qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining iqtisodiy samaradorligi sezilarli ravishda iqtisodiy mexanizm shakllantiradigan omillarning birinchi guruhi bilan belgilanadi. Ularning iqtisodiy mexanizmida omillarning ikkinchi guruhi asosiy rol o'ynaydi.

Murakkab sharoitda agrar sektorda inqirozni bartaraf etish, ishlab chiqarishni barqarorlashtirish va iqtisodiy samaradorlikni oshirish uchun davlati tomonidan tartibga solinish va ASM iqtisodiy munosabatlarni optimallashtirish yo'li bilan amaliy natija beradigan iqtisodiy mexanizm yaratish zarur.

Bozor munosabatlari tizimida ahamiyati (qiymati) bo'yicha ikkita teng tuzuvchini ajratish mumkin: talab va taklifning optimal nisbatini belgilovchi qishloq xo'jaligi va tovar ishlab chiqaruvchilar hamda turli darajadagi xaridorlarning bozordagi yerkin muomalasi kafolati va maqsadi, bozor sub'yektlarining samarali faoliyat va ishlab chiqarishni ekologiyalashtirishga yo'naltirish bo'lgan bozor munosabatlarini iqtisodiy tartibga solish mexanizmlaridan iborat.

Qishloq xo'jaligining iqtisodiy samardorligi sezilarli darajada intensiv ishlab chiqarish darajasiga bog'liq. Yuzaga kelgan sharoitlarda ishlab chiqarishni jadallashtirishning muhim yo'nalishi - mahsulot ishlab chiqarishning jadal, resurslarni tejovchi texnologiyasini qo'llash, chorvachilikda, naslchilik ishlarini, urug'chilikni yaxshilash, o'simliklarning kelajagi bor, tez pishar, yuqori hosilli, samarali navlaridan, chorva mollari va parrandalarning mahsuldor zotlaridan foydalanish, mineral va organik o'g'itlarning gerbitsid va qishloq xo'jaligi ekinlarini himoyalashning optimal dozalarini kiritish, ozuqa bazalarini mustahkamlash va hokazolar.

Qishloq xo'jaligi ekinlarini yetishtirishda intensiv texnologiyalardan foydalanish iqtisodiy jihatdan foydali. Ulardan foydalanib, kuzgi bug'doy yetishtirilganda hosildorlik 35-40% ga ortishiga, tannarx 4-6% pasayib, 1 ga ekin maydoni hisobiga daromad 50-60% oshishiga erishiladi.

Moddiy mablag'lar tanqisligi sharoitida resurslarni tejovchi texnologiyalardan foydalanish zarur. Hisob-kitoblarning ko'rsatishicha, paxta yetishtirishda ana shunday texnologiyadan foydalanish mehnat unumdorligini 1,5-2 marta oshirish, yoqilg'i va moylash materiallari sarfini 25-30%, mahsulot birligi tannarxini esa 35-40% ga kamaytirishga imkon beradi.

Ishlab chiqarishni intensivlashtirishdagi muhim shart – almashlab ekishga amal qilish. Mamlakatning ko'pgina mintaqalarida dehqonchilikni jadallashtirish talablariga yarmini g'alla, paxta, beda, makka, texnika ekinlari va boshqa oziq-ovqat ekinlari almashlab ekilishi bilan javob beriladi. Ammo ko'pgina xo'jaliklarda zarur texnika yo'qligi bois, bu shartga amal qilinmaydi va natijada hosil yo'qotiladi. G'alla ekinlarini optimal muddatlarda (10-14 kun) yig'ib olish qo'shimcha ravishda 15-20% ekinni saqlab qolishga imkon beradi.

Yuzaga kelgan inqiroz sharoitida qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi iqtisodiy samardorligini oshirishda qo'shimcha investitsiya talab qilmaydigan, lekin ishlab chiqariladigan mahsulotning ortishiga yordam beradigan ekinlar strukturasi optimallashtirishgdir.

Chorvachilikni kelgusi rivojlanishi va uning iqtisodiy samardorligi ortishining hal qiluvchi yo'nalishlaridan biri – mustahkam va barqaror ozuqa bazasini yaratishdir. Har bir qishloq xo'jaligi korxonasida ozuqa bazasini mutsahkamlash bo'yicha tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirish kerak bo'ladi. Bu chorvachilikda hayvonlar mahsuldorligining ortishi va mahsulot tannarxining pasayishiga yordam beradi.

Mehnat unumdorligining oshishi va ishlab chiqarishning iqtisodiy samardorligida ishlab chiqarish jarayonini mexanizatsiyalashtirish muhim rol o'ynaydi. Ayrim qishloq xo'jaligi ekinlarini yetishtirishning (paxta, g'alla va b.) mexanizatsiyalashtirilganlik darajasi juda yuqori (20-25%).

Paxta, g`alla, muhim texnika va ayrim ozuqa ekinlarini yetishtirish uchun mashinalar tizimi ishlab chiqilgan. Biroq, qator tarmoqlarda (bog`dorchilik, uzumchilik, tamakichilik va b.) hozircha alohida mashinalar va ayrim ishlab chiqarish jarayonlarini mexanizatsiyalashtirish uchun ularning komplekslari mavjud, holos.

Ishlab chiqarishning iqtisodiy samaradorligini oshirishdagi muhim shart – qishloq xo`jaligi mahsulotlari sifatini yaxshilash. Qishloq xo`jaligi mahsulotlarining sifati qancha yuqori bo`lsa, uning realizatsiya bahosi ham shunchalik yuqori, shuningdek, ishlab chiqarish rentabelligi ham baland bo`ladi. Masalan, 23% dan ortiq shiradorlikka ega (kleykovina) bug`doy oziq-ovqat maqsadlarida foydalaniladi. Bunday bug`doyning narxi yem-hashakliga nisbatan 1,5-1,7 marta yuqori.

Qishloq xo`jaligi mahsulotlarining sifati ko`pgina omillarga bog`liq. Bular: o`simliklar navlari va chorva mollari zoti, ishlab chiqarish texnologiyasi va tashkil etish, tarmoqning moddiy-texnik bazasini rivojlantirish, ishchilar malakasi, iqlim sharoiti, tuproq unumdorligi, saqlash va tashish shartlari va hokazolar.

Qishloq xo`jaligini rentabelli yuritishning muhim sharti – uning to`lovi darajasi bilan belgilanuvchi yuqori unumli mehnat motivatsiyasidir. Sezilarli darajadagi bozor iqtisodiyotiga mehnatga haq to`lash ishchi kuchining ishchi va uning oilasini moddiy va ma`naviy jihatdan zarur talablarini qondirish va mehnat resurlarini kengaytirilgan qayta ishlab chiqarish uchun imkon beruvchi bahosi asosida shakllanishi kerak.

Bozor infratizilmasi yetarlicha rivojlanmaganligidan mahsulot sotishda to`lamaslik va boshqa qiyinchiliklar yuz beradi va bunda xom ashyoni emas, qayta ishlangan holdagi mahsulotni realizatsiya qilish maqsadga muvofiq. Qishloq xo`jaligi mahsulotlariga joyida ishlov berish iqtisodiy jihatdan foydali, chunki hamma ishlab chiqilgan mahsulotlardan, shu jumladan, nostandartlarini ham tovar aylanishiga jalb etib, foydalanish imkonini beradi. Natijada qishloq xo`jalik korxona sharoitida ishlab chiqilgan sanoat mahsulotlari ulushi ko`payadi. Shu bilan birga, mos keluvchi ishlab chiqarish quvvatiga ega to`liqroq va oqilona qayta ishlash imkonini beruvchi, shuningdek, yuqori sifatli va keng assortimentda mahsulot ishlab chiqaruvchi sanoat korxona ulardan 20-35% foydalanadilar.

Yirik korxonalar va uncha katta bo`lmagan qayta ishlash bo`linmalari quvvatidan to`liq foydalanish, shuningdek, qayta ishlash sohasidagi lokal monopolizmni zabt etish uchun koopreatsiyani va qishloq xo`jaligi tovar ishlab chiqaruvchilarini, hamda xom ashyo ishlab chiqaruvchilar integratsiyasini integrallashga tizim tuzish bilan rivojlantirish zarur. Ular: agrofimlar, assotsiatsiyalar, agrosanoat birlashmalari, holding kompaniyalar, moliyaviy-sanoat guruhlaridir.

Ishlab chiqarish samaradorligi salmoqli darajada mahsulotni muvaffaqiyatli realizatsiya qilishga, ya`ni qishloq xo`jaligi tovar ishlab chiqaruvchilarining marketing faoliyatiga bog`liq. Shu bois keng assortimentda mahsulot ishlab

chiqaruvchi yirik korxonalarda, shuningdek, o'z mahsulotlarining sezilarli qismini o'z ma'muriy tuman va viloyatlaridan tashqarida sotuvchi xo'jaliklarda marketing xizmati zarur. Uncha ko'p bo'lmagan miqdorda mahsulot ishlab chiqaruvchi korxonalar uchun bunday xizmatni tuman yoki viloyat miqyosida tashkil etish maqsadga muvofiq.

Marketingni alohida korxona tuman va viloyat darajasida tashkil etish xo'jalik rahbariyati va mutaxassislarini mahsulotga talab va taklifning mavjudligi, ularni qayerda va qanday narxlarda sotish foydaliroqligi haqidagi axborotlar bilan ta'minlash, marketing tadqiqotini amalga oshirish va ishlab chiqarish samaradorligini oshirish hamda realizatsiyaga yordam beruvchi u yoki bu marketing strategiyasini amalga oshirishda ko'maklashadi.

Aholining oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan talablarini to'liqroq qondirish uchun qishloq xo'jaligi mahsulotlarining zamon talablari asosida bozorlar kerak. Rivojlangan mamlakatlar tajribalarining ko'rsatishicha, oziq-ovqat bozori o'zini-o'zi tartibga soluvchi tizim emas. U iqtisodiy metodlar yordamida, davlati tomonidan doimiy maqsadga yo'naltirilgan ta'sirini talab qiladi. Narxlar dispariteti sharoitida tovar ishlab chiqaruvchilarga mineral o'g'itlar, texnikalar, yoqilg'i va moylash materiallari sotib olish uchun, shuningdek, lizing operatsiyalari, bahorgi dala va yig'im-terim ishlari uchun imtiyozli kreditlar (yillik 10% gacha) kompensatsiyalar berish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Agrosanoat ishlab chiqarishni davlati tomonidan tartibga solinishi asosida korxonaning normal funktsiyalanishi uchun minimal daromadlilikini ta'minlash printsipli yotadi.

Yuzaga kelgan sharoitda bunga narx, soliq va kredit, agrar siyosatini optimallashtirish yo'li bilangina erishish mumkin.

Xulosa va takliflar

Bitiruv malakaviy ishini bajarishda quyidagi xulosalar olindi.

1. Qishloq xo'jaligida ishlab chiqarishni intensivlashtirishda quyidagi omillar ta'sir ko'rsatadi:.

A). Iqtisodiy o'sish omillari quyidagilar:

- mehnat resurslari soni va sifatining ortishi;
- asosiy vositalar hajmining o'sishi va sifat tarkibining yaxshilanishi;
- ishlab chiqarish texnologiyalari va tashkil qilishni mukammallashtirish;
- xo'jalik faoliyatiga jalb etiluvchi yer resurslarining hajmini oshirish va sifat tarkibini yaxshilash;
- tadbirkorlikni rivojlantirish;

- bozorni monopoliyalash darajasini pasaytirish;
- ishlab chiqarish resurslari narxini pasaytirish;
- daromadga soliqlarni kamaytirish va hokazo.

B) Qishloq xo'jaligi mahsulotlarining narxi barqaror emas va qator omillarning ta'siriga mahkum:

- bozor kon'yunkturasi, talab va takliflar;
- ilmiy-texnik taraqqiyot va mehnat unumdorligi;
- raqobat;
- soliqlar;
- narxlarni davlati tomonidan tartibga solish;
- ishlab chiqarish xarajatlari va mahsulot realizatsiyasi;
- mahsulot sifati;
- realizatsiya muddatlari va vositalari.

2. Intensivlashtirish o'z mohiyatiga ko'ra, qishloq xo'jaligida ma'lum chegaralarga ega. Masalan, qishloq xo'jaligi ekinlarini parvarishlashda har bir texnologik jarayon uchun optimal agrotexnika muddatlari mavjud. Yer haydash uchun yer haydovchi traktor, ekish uchun ma'lum miqdordagi ekish agregati, hosilni o'rish uchun (donchilikda) kombaynlar bo'lishi kerak.

3. Mahsulotlar sifati-uning o'z vazifasiga ko'ra mos ravishda ma'lum talabni qondirishga asoslanadigan xususiyatlarining yig'indisi. Xaridor uning qanday o'ziga xos talabini qondirishiga qaramasdan o'zining iste'mol talabiga javob beradigan mahsulotni sifatli deb biladi. Bir mahsulotning sifati, undan bitta maqsad yo'lida foydalanish uchun yuqori yoki past deb bilinishi mumkin. Masalan, arpadagi oqsilning ortishi uning yem-xashak sifatida qimmatini oshirsada, pivo tayyorlash mahsuloti sifatini pasaytiradi.

4. Qishloq xo'jaligida takror ishlab chiqarish quyidagi o'ziga xos xususiyatlariga ega:

1. Iqtisodiy takror ishlab chiqarish tabiiylik bilan bog'liq. Qishloq xo'jaligida takror ishlab chiqarishning iqtisodiy jarayonlari o'simliklar va hayvonlar rivojlanishi bo'ysunadigan tabiiy takror ishlab chiqarish bilan chatishib ketgan. Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini olish muddatlari o'simlik va hayvonlarning ishlab chiqarish jarayoni bilan bog'liq.
2. Qishloq xo'jaligida takror ishlab chiqarish jarayoniga tabiiy sharoit katta ta'sir o'tkazadi. Tuproq – iqlim sharoiti korxona xo'jalik faoliyati natijalarini belgilaydi va qishloq xo'jalik ishlab chiqarish samaradorligini oshiradi.
3. Yer qishloq xo'jaligidagi asosiy ishlab chiqarish vositasi sifatida o'z moddiy shaklida takror ishlab chiqarilmaydi. Tuproq unumdordigini oshirish-tarmoqdagi kengaytirilgan takror ishlab chiqarishning so'zsiz shartidir.

4. Qishloq xo'jaligida ishlab chiqarishning mavsumiylik xarakteri unda ishchi davri va ishlab chiqarish davrining bir-biriga muvofiq kelmasligi bilan bog'liq.
5. Qishloq xo'jaligida takror ishlab chiqarish jarayoniga, qishloq xo'jaligi mahsulotlarining asosiy turlarini ishlab chiqarish muddatlariga mos keluvchi yillik tsiklning davomiylik o'ziga xos bo'ladi.
6. Qishloq xo'jaligida ishlab chiqarish vositasi sifatida ham, iste'mol predmeti sifatida ham foydalaniladigan mahsulotlar yaratiladi, shuning uchun qator mahsulotlar navbatdagi ishlab chiqarish jarayonida ishtirok etadi (ozuqa, urug'lik, chorva, xom ashyo).

Qishloq xo'jaligida intensivlashtirish quyidagi asosiy yo'nalishlarda olib boriladi:

1. Kimyolashtirish - qishloq xo'jaligini intensivlashtirishning asosiy yo'nalishlaridan biridir. Samarali mineral o'g'itlarni ishlab chiqarish, urug'liklarga kimyoviy ishlov berish, turli kasalliklar va zararkunandalarga qarshi kurashish va shu kabilar haqida gap borganda kimyolashtirishning juda katta ahamiyatga ega ekanligini bilamiz. Kimyolashtirishsiz qishloq xo'jaligida sezilarli muvaffaqiyatga erishish mumkin emas.

2. Qishloq xo'jaligini intensivlashtirishning boshqa bir yo'nalishi – ishlab chiqarishni mexanizatsiyalashtirish va avtomatlashtirishdir. Mehnat unumdorligini oshirish, ishlab chiqarishning samarali faoliyat ko'rsatishi ish jarayonlarini mexanizatsiyalash va avtomatlashtirish darajasiga bog'liq. Og'ir ish jarayonlarini mashinalar yordamida bajarish nafaqat iqtisodiy samaradorlikni oshiradi, balki og'ir ishlardan kishilarni ozod qilish, ijtimoiy masalani ham ma'lum darajada ijobiy hal etishga olib keladi.

3. Qishloq xo'jaligini intensivlashtirishning boshqa bir yo'nalishi ishlab chiqarishni elektrlashtirishdir. Elektr imkoniyatlaridan foydalanmasdan ishlab chiqarishning bugungi rivojini ko'rish mumkin emas.

4. Fan, texnika va texnologiya yutuqlarini ishlab chiqarishga joriy etish ham intensivlashtirish yo'nalishlaridan biridir. Kadrlarning malakasini, bilimini oshirish ham eng kerakli yo'nalishlar sifatida yuzaga chiqadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Huquqiy va me'yoriy hujjatlar

- 1.1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi – T: O'zbekiston, 2008. – 40 b.
- 1.2. O'zbekiston Respublikasining “Fermar xo'jaligi to'g'risida”gi Qonuni (Yangi tahrirda)// Xalq so'zi. – 15 oktabr 2004 yil
- 1.3. O'zbekiston Respublikasining “Mulkchilik to'g'risida”gi Qonuni. // O'zbekiston Respublikasi qonun va farmonlar.- T.:O'zbekiston. 1992. – 19 b.
- 1.4. O'zbekiston Respublikasining “Yer kodeksi”.// J. Soliq to'lovchi jurnali. 1998. № 7 – 8. – 12 b.
- 1.5. O'zbekiston Respublikasining «Suv va suvdan foydalanish to'g'risida»gi qonuni. //Qishloq xo'jaligida islohotlarni chuqurlashtirishga doir qonun va me'yoriy hujjatlar to'plami. 1-qism. – T.: Sharq 1998.
- 1.6. O'zbekiston Respublikasining “Dehqon xo'jaligi to'g'risida”gi qonuni. // Xalq so'zi. 6 iyun 1998 yil.
- 1.7. O'zbekiston Respublikasining “Bank va bank faoliyati to'g'risida”gi qonuni. 1996. – 25 aprel
- 1.8. O'zbekiston Respublikasining “Lizing to'g'risida”gi Qonuni. 1999. – 14 aprel
- 1.9. O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi. 2007 yil 25 dekabr. – 263 b.
- 1.10.O'zbekiston Respublikasining Mehnat Kodeksi. –T.: Adolat. – 1999. – 136 b.
- 1.11.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2002 yil 28 avgustdagi “Lizing faoliyatini rivojlantirishni yanada rag'batlantirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi Farmoni.// Xalq so'zi. – 2002 yil 30 avgust
- 1.12.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2003 yil 24 martdagi “Qishloq xo'jaligida islohotlarni chuqurlashtirishning eng muhim yo'nalishlari to'g'risida”gi Farmoni. // Qishloq xo'jaligida iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirishning asoslari.– T.: Fan. 2003. – 7b.
- 1.13.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2003 yil 27 oktabrdagi “2004-2006 yillarda fermer xo'jaliklarini rivojlantirish kontseptsiyasi to'g'risida”gi Farmoni. // Qishloq xo'jaligida iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirishning asoslari. – T.: Fan. 2003. – 12 b.
- 1.14.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2004 yil 4 noyabrdagi “2005-2007 yillarda fermer xo'jaliklarini jadal rivojlantirishga qaratilgan takliflar tayyorlash bo'yicha maxsus komissiya tuzish to'g'risida”gi Farmoni // Xalq so'zi. – 2004 yil 5 noyabr
- 1.15.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Mikrokreditbank AT banki faoliyatini tashkil etish va uning moddiy texnika bazasini mustahkamlash chora – tadbirlari to'g'risida”gi Farmoni. 2006. – 6 may
- 1.16.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008 yil 28 noyabrdagi PF-4053-sonli «Iqtisodiyotning real sektori korxonalarini qo'llab-quvvatlash, ularning barqaror

ishlashini ta'minlash va eksport salohiyatini oshirish chora-tadbirlari dasturi to'g'risida»gi Farmoni

1.17.O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining "MTPlarning moddiy texnika bazasini mustahkamlash haqida"gi qarori. 1998. – 10 mart.

1.18.“Qishloq xo'jaligida agrokimyoviy xizmat ko'rsatishni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining karori. 2001. – 1 fevral

1.19.O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "2005-2007 yillarda fermer xo'jaliklarini jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risidagi" 607-sonli qarori. 2004. – 24 dekabr.

1.20.O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003 yil 30 oktabrdagi "2004-2006 yillarda fermer xo'jaliklarini rivojlantirish kontseptsiyasini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi 476-sonli qarori.// Qishloq xo'jaligida iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirishning asoslari. – T.: Fan. 2003. – 41 b.

1.21.O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003 yil 30 oktabrdagi "Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishida shartnomaviy munosabatlarni takomillashtirish va majburiyatlar bajarilishi uchun tomonlarning javobgarligini oshirish chora – tadbirlari to'g'risida”gi 383-sonli qarori.// Qishloq xo'jaligida iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirishning asoslari. – T.: Fan. 2003. – 16 b.

1.22.O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Kichik korxonalar, dehqon va fermer xo'jaliklarini mablag' bilan ta'minlash, moddiy-texnik ta'minlash, ularga bojxona imtyozlari berish, bank xizmatlari va boshqa xizmatlar ko'rsatish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi 2001 yil 10 sentabrdagi 366-sonli Qarori. //O'zbekiston Respublikasi banklari tomonidan kichik va o'rta biznesni qo'llab-quvvatlash bo'yicha qonunchilik hujjatlari to'plami. T.: «O'zbekiston», 2002 y.

1.23.O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Kimyo sanoati korxonalarini boshqarish tuzilmasini takomillashtirish va qishloq xo'jaligiga agrokimyo xizmati ko'rsatishni yaxshilash chora-tadbirlari to'g'risida”gi 2004 yil 23 yanvar 33-sonli Qarori.

1.24.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Mevasabzavotchilik va uzumchilik sohasida isloh qilishning tashkiliy chora – tadbirlari to'g'risida”gi qarori.2006. – 11 yanvar

1.25.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Kishlok xo'jaligi uchun minitexnologiyalar va ixcham uskunalarining Xalkaro ixtisoslashtirilgan ko'rgazma-savdosini o'tkazishni tashkil kilish chora-tadbirlari to'grisida”gi qarori 2006 yil 24 avgustdagi 449-sonli Karori

1.26.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasida 2006 – 2010 yillarda xizmat ko'rsatish va servis sohasini rivojlantirishni jadallashtirish chora – tadbirlari to'g'risida”gi Qarori 2006. – 17 aprel

- 1.27. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2007 yilda qishloq xo'jaligi korxonalarini fermer xo'jaliklarga aylantirish chora – tadbirlari to'g'risida"gi Qarori. 2006. – 11 noyabr
- 1.28. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasida 2010 yil davrgacha xizmat ko'rsatish va servis sohasini rivojlantirishni jadallashtirish qo'shimcha chora – tadbirlari to'g'risida"gi Qarori. 2007. – 21 may. 36b.
- 1.29. Qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtiruvchilar bilan tayyorlov, xizmat ko'rsatish tashkilotlar o'rtasida shartnomalar tuzish, ularni ro'yxatdan o'tkazish, bajarish, shuningdek ularning bajarilishi monitoringini olib borish tartibi to'g'risidagi Nizom. // Qishloq xo'jaligida iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirishning asoslari. – T.: Fan. 2003. – 18 b.
- 1.30. Qishloq xo'jaligi korxonalarining davlat ehtiyojlari uchun xarid qilinadigan paxta va g'alla yetishtirish xarajatlarini tijorat banklari tomonidan kreditlarsh tartibi to'g'risida Nizom. // O'zbekiston qishloq xo'jaligi jurnali. – 2007. №7. – 2 b.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti asari va ma'ruzalari

- 2.1. Karimov I.A. Asosiy vazifamiz – Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasida 2009 yilda mamlakatimizni ijtimoiy – iqtisodiy rivojlantirish yakunlari hamda 2010 yilda iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirishning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasi majlisidagi ma'ruzasi // Xalq so'zi. – 2010. 30 yanvar
- 2.2. Karimov I.A. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi: O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisidagi ma'ruza. 2010 yil 12 noyabr./-T.: "O'zbekiston", 2010.-56 b.
- 2.3. Karimov I.A. Barcha reja va dasturlarimiz vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish, xalqimiz farovonligini oshirishga xizmat qiladi: 2010 yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2011 yilga mo'ljallangan eng muhim ustuvor yo'nalishlarga bag'ishlangan O'zR Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruza, 2011 yil 21 yanv./-T.: O'zbekiston, 2011.-48 b
- 2.4. Karimov I.A. 2012 yil – Vatanimiz taraqqiyotini yangi bosqichga ko'taradigan yil bo'ladi. 2011 yilning asosiy yakunlari va 2012 yilda O'zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi //Xalq so'zi, 2012 yil 20 yanvar.
- 2.5. Karimov A.I. 2014 yil yuqori o'sish sur'atlari bilan rivojlanish, barcha mavjud imkoniyatlarni safarbar etish, o'zini oqlagan islohotlar strategiyasini izchil davom ettirish yili bo'ladi // Xalq so'zi. – 2014 yil 18 yanvar.

3. Asosiy adabiyotlar

- 3.1. Abdugʻaniyev A., Abdugʻaniyev A.A. Qishloq xoʻjaligi iqtisodiyoti. – T.: Oʻzbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot Jamgʻarmasi. 2004.- 304 b.
- 3.2. Berkinov B.B., Tashmatov R.X. Oʻzbekistonda fermer xoʻjaliklariga xizmat koʻrsatuvchi infratuzilmalarni rivojlantirish yoʻnalishlari. Oʻquv qoʻllanma. T.: TDIU, 2007. – 44 b.
- 3.3. Zokirov O., Pardayev A. Qishloq xoʻjalik iqtisodiyoti. Darslik. T.: OʻAJBNT, 2003. - 260 b.
- 3.4. Salimov B.T., Oʻroqov N.I. Qishloq xoʻjaligi infratuzilmasi iqtisodiyoti. Oʻquv qoʻllanma. T.: Oʻzbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot Jamgʻarmasi. 2004. – 112 b.
- 3.5. Ergashev R.X. Qishloq xoʻjaligi iqtisodiyoti. Darslik. T.: Extremum Press, 2011. – 416 b.
- 3.6. Ergashev R.X., S.N.Xamrayeva. Qishloq xoʻjaligi infratuzilmasi iqtisodiyoti. Oʻquv qoʻllanma, T: Yangi asr avlodi, 2012, 249 bet
- 3.7. Umurzoqov Oʻ.P., Toshboyev A.J., Toshboyev A.A. Fermer xoʻjaligi iqtisodiyoti. Oʻquv qoʻllanma. –T. Iqtisod – moliY. 2007. – 228 b.
- 3.8. Ergashev R.X. Agrar sohada bozor munosabatlarini shakllantirishda fermerlik harakatining ahamiyati // Agrar sohada iqtisodiy islohotlarning ustuvor yoʻnalishlari. Xalqaro ilmiy-amaliy konferentsiyasi maʼruzalar toʻplami. – Toshkent: QMII, 2006. – B. 16-20
- 3.9. Ergashev R.X., Shoxoʻjayeva Z.S., Xamrayeva S.N. Qishloq xoʻjaligi iqtisodiyoti (I qism) // Uslubiy qoʻllanma Qarshi, 2009 y, 100 b
- 3.10. Ergashev R.X., Shoxoʻjayeva Z.S., Xamrayeva S.N. Dehqon va fermer xoʻjaliklari iqtisodiyoti. Uslubiy qoʻllanma, Qarshi, 2009 y.112 bet

4. Statistik toʻplamlar

- 4.1. Oʻzbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish koʻrsatkichlari. 2007 – 2013 yillar.
- 4.2. Oʻzbekiston Respublikasi Qishloq va suv xoʻjaligi vazirligi maʼlumotlari. 2007 – 2013 yillar.
- 4.3. Qashqadaryo viloyati Iqtisodiyot bosh boshqarmasi hisobotlari.
- 4.4. Qashqadaryo viloyati Qishloq va suv xoʻjaligi boshqarmasi hisobotlari.
- 4.5. Qarshi tumani Iqtisodiyot boʻlimi yillik hisobotlari.

5. Internet Veb sahifalari

- 5.1. http://www.usda_programs
- 5.2. <http://www.iuf.ru/>
- 5.3. <http://geliopax.tele-kom.ru>
- 5.4. <http://www.usaidmicro.org>